

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

Veterinariya, zootexniya va qorako'lchilik fakulteti

5440100 –Veterinariya ta'lim yo'nalishi

Baymirzayev JahongirAbduvositovichning

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

**Mavzu: Fitonsidlarning veterinariya amaliyotidagi ahamiyati va
qo'llanilishi (referativ)**

Ilmiy raxbar, dosent:

Salimov Yu.

**Veterinariya, zootexniya va
qorako'lchilik fakulteti dekani,
dosent _____ H.B. Niyozov
«_____» _____ 2015 yil**

**Hayvonlar anatomiyasi,
fiziologiyasi, jarroxlik
va farmakologiya" kafedrası
mudiri, dosent ____ B.D.Narziyev
«_____» _____ 2015 y
№ _____ - sonli yig'ilish bayoni**

SAMARQAND - 2015

MUNDARIJA

№		Bet
1	Kirish	3
1.1	Mavzuning dolzarbligi	12
2	Adabiyotlar sharxi	16
2.1	Dorivor o'simliklar va ularni yetishtirishning qisqacha tarixi	16
3	Xususiy izlanishlar	35
3.1	Shifobaxsh o'simliklar bilan davolash (fitoterapiya)	35
3.2	Fitoichimliklarni tayyorlash texnologiyasi.	50
3.3	Fitonsidlar va ularni saqlash hamda qo'llash muddatlari	52
4	Veterinariya ishini tashkil etish va iqtisodiyoti	65
5	Hayot faoliyati xavfsizligi.	70
5.1	Mehnatni muhofaza qilish	71
5.2	Fuqarolar mudofaasi	72
6	Xulosalar	74
7	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	75
8	Internet ma'lumotlari	77

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi "2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizasiya va diversifikasiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir" mavzusidagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek, 2014 yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, birinchi navbatda, iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish borasida barqaror yuqori o'sish sur'atlariga erishganimizni ta'kidlash joiz.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014 yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga o'sdi.

2014 yilda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan, umumiy qiymati 4milliard 200 million dollaoga teng bo'lgan 154 ta yirik obyekt foydalanishga topshirildi.

Qishloq xo'jaligida erishilgan yutuqlar haqida gapirganda, shuni alohida ta'kidlashni istardimki, bu sohada biz qo'lga kiritgan ulkan marralar, avvalo, fermerlarimiz, qishloq xo'jaligi mutaxassislari va qishloq taraqqiyoti bilan bog'liq tarmoqlarda mehnat qilayotgan yuz minglab yurtdoshlarimizning fidokorona mehnati, bilim va tajribasining samarasidir. Dehqon va fermerlarimizning mardonavor mehnati, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hisobidan 3 million 400 ming tonnadan ziyod paxta, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi tarixida birinchi marta 8million 50 ming tonnalik yuksak g'alla xirmoni bunyod etildi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan shaxsiy yordamchi dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari sonini ko'paytirishni rag'batlantirish, servis xizmatlari tarmog'ini tashkil etishga doir chora tadbirlar dasturining amalga oshirishi natijasida chorvachilikni rivojlantirishda ijobiy siljishlar qayd etildi. Amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida barcha toifadagi xo'jaliklarida qoramollar bosh soni 10 mln 994,6 ming boshni shundan sigirlar 4 mln 84,8 ming boshni; qo'y va echkilar 18 mln 447,4 ming boshni, parrandalar 56 mln 195 ming boshni tashkil etdi. 2014 yilda 1 mln 906,5 ming tonna tirik vazinda go'sht, 8 mln 432,8 ming tonna sut, 4 mlrd 949,9 mln dona tuxum, 46,5 ming tonna baliq 8,7 ming tonna asal ishlab chiqarildi.

Vazirlar Maxkamasi tomonidan 2014 yil uchun tasdiqlangan dasturlar ijrosi yuzasidan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklaridagi chorva mollariga 2613 ta zooveterinariya punktlari tomonidan zooveterinariya servis xizmatlari ko'rsatildi. Respublikada foaliyat yuritaytgan 410 ta qoramolchilik naslchilik xo'jaliklarida 7,8 ming bosh naslli mollar tayrlanib ouksionlarda sotish tashkil etildi.

Ta'lim sohasida o'quv muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash borasidagi ishlar izchil davom ettirildi. Ta'lim muassasalarini o'quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter va multimedia vositalari bilan ta'minlash amalga oshirildi.

2011-2016 yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish dasturi doirasida 19 ta oliy ta'lim muassasasida qurilish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash ishlari bajarildi.

2015 yilda yalpi ichki mahsulot hajmining o'sish sur'ati 108 foiz darajasida bo'lishi ko'zda tutilmoqda. Bu borada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 6 foizga ko'payishi belgilanmoqda.

Barchamiz yaxshi anglab olishimiz zarurki, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib, tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini

ta'minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o'rinlarini tashkil etish, pirovard natijada o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarimizga erishish haqida so'z yuritish mumkin emas.

Buning uchun:

Birinchi navbatda, jahon bozorida teng raqobatlasha oladigan va keyingi bosqichda iqtisodiy o'sishning, iqtisodiyotni yanada modernizasiya va diversifikasiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo'lgan tarmoq va korxonalarni jadal rivojlantirish hamda aniq yo'naltirilgan holda qo'llab-quvvatlashni ta'minlash zarur.

Ikkinchidan. Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida bu sohaga to'liq erkinlik berish, bu yo'lda g'ov bo'lib turgan barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish eng muhim ustuvor vazifadir.

Uchinchidan. Iqtisodiyotimizda davlatning ishtiroki qay darajada ekanini tanqidiy baholash, uni strategik hamda iqtisodiy asoslangan darajaga qadar qisqartirish zarurligini alohida ta'kidlashni o'rinli deb bilaman.

To'rtinchidan. Korporativ boshqaruv tizimidagi prinsip va yondashuvlarni tubdan o'zgartirish, ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investisiya jarayonlariga zamonaviy xalqaro korporativ menejment standartlarini joriy etish jiddiy e'tiborni talab qiladi.

Beshinchidan. Ishlab chiqarishni mahallilashtirishni chuqurlashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperasiyasini kengaytirish iqtisodiy o'sish va iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o'zgartirishningeng muhim manbai va omilidir.

Oltinchidan. Rivojlangan infratuzilmani tashkil etmasdan, birinchi navbatda, axborot-kommunikasiya tizimi, yo'l-transport va muhandislik-kommunikasiya qurilishini taraqqiy ettirmasdan turib, iqtisodiyotimizni tarkibiy jihatdan o'zgartirishga erishish mumkin emas.

Aholi farovonligi va turmush darajasini muttasil oshirish bilan bog'liq masalalar doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

2015 yilga mamlakatimizda Keksalarni e'zozlash yili, deb nom berganimiz zamirida ham mohiyat e'tibori bilan ana shunday ezgu maqsadlar mujassam ekani,

o'ylaymanki, barchamizga yaxshi ma'lum. Bugungi tinch va obod hayotimizni barpo etishga beqiyos xizmatlari singgan, xonadonlarimizning fayzi bo'lgan mo'tabar keksalarimizning farovon va munosib umr kechirishlari uchun keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki insoniy burchimizdir.

“O'zbekistonda oziq- ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zahiralari” mavzusidagi halqaro konferensiyaning oshilish marasimidagi O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning nutqida ta'kidlanganidek, oziq – ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'tkazilayotgan halqaro ekspert tadqiqotlari jahonda va uning ayrim mintaqalarida ushbu muammo bilan bog'liq murakkab vaziyat yuzaga kelayotgani jiddiy tashvish va havotir uyg'atayotganini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda mazkur muammo jahon hamjamiyati uchun o'ta dolzarb va jiddiy tahdidlar qatoriga kiritilmoqda.

Bu borada ovqat bilan birga o'rnini hyech narsa bosalmaydigan aminokislotar, vitaminlar, mineral moddalar, mikroelementlar va organizmda o'z-o'zidan hosil bo'lmaydigan boshqa moddalarning ham iste'mol qilinishi inson hayoti uchun eng muhim ahamiyatga egadir. Ana shu foydali moddalar, vitamin va mikroelementlar katta miqdorda va yetarli darajada faqatgina sabzavotlar, meva va uzum tarkibida, chorvachilik mahsulotlaridan go'sht, sut, tuxumda bo'ladi va ularning o'rnini boshqa hyech qanday mahsulot bosa olmaydi.

O'zbekistonda shakllangan ko'p asrlik an'anaviy sabzavotchilik va bog'dorchilik madaniyati azaldan mahalliy o'g'itlardan foydalanishni ko'zda tutadigan biologik dehqonchilik prinsiplariga asoslangan (mahalliy o'g'it bilan chorvachilik ta'minlaydi). Bu genlarni modifikasiya qilish texnologiyalarini qo'llamasdan, juda mazali ta'mga va istemol xususiyatlariga ega bo'lgan ekologik toza meva va sabzavotlar yetishtirish imkonini beradi. Biz mineral o'g'itlar, pestisidlao va shu kabi vositalarning o'rniga doimo ko'plab kelayotgan va biz uchun ustuvor bo'lgan organik o'g'itlardan foydalanishni afzal deb bilamiz. Biz dunyoning 80 ta davlatiga 180 turdan ortiq sarxil meva sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlarni eksport qilmoqdamiz. O'zbekiston

o'rik, olxo'ri, uzum, yong'oq, karam va boshqa ko'plab meva va mabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmi bo'yicha dunyoda shunday mahsulotlarni yetkazib beradigan o'nta yetakchi dalat qatoriga kiradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida chorvachilik tarmog'ida xususiy mulk ustunligi ta'minlandi. Asosiy chorvachilik mahsulotlari yetishtiruvchi xo'jaliklar sifatida dehqon xo'jaliklari asosiy o'rinni egallaydi. Natijada keyingi yillarda chorvachilik mahsulotlari iste'mol miqdori barqaror o'sib bordi. Jumladan, aholi jon boshiga go'sht va go'sht mahsulotlari iste'mol qilish 1990 yilda 31 kg ni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 38 kg ni; sut va sut mahsulotlari iste'mol qilish 183 kg dan 239 kg ni; tuxum iste'mol qilish 97 donadan 138 donani tashkil etdi.

Chorvalik va veterinariya sohalaridagi islohatlarni shu sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar amalga oshiradi. Shuning uchun mamlakatimiz rahbari tomonidan ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, respublikamiz ilmiy salohiyotini jahon andozalari darajasiga ko'tarish, ilm- fan yutuqlarini ishlab chiqarishga keng joriy etish masalasiga katta e'tibor berilmoqda

Bugungi kunda yoshlar uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Fanni chuqur egallab katta yutqqlarga erishiman degan talabayu tadqiqotchi uchun barcha eshiklar ochiq. Tirishqoqlik bilan, sabr-bardosh bilan izlansa, aqlini ishlatlsa, ilmu-fanning ochilmagan ko'riqlari juda ko'p, ularni kashf ulkan yangiliklar muallifiga aylanish mumkin. Xorijning eng mashhur akademiya va unerversitetlarida tajriba orttirish, o'qish – o'rganish imkoniyatlari ham mavjud. Bularning bari istiqlol tufayli amalga oshmoqda.

Chorva mollarini o'z vaqtida to'g'ri va sifatli oziqlantirish, ularni veterinariya ko'rigidan (dispanserizasiya) o'tkazish, kasallangan molni o'z vaqtida ajratish va davolash, molxonalarda muntazam ravishda dezinfeksiya, deratizasiya va dezinseksiya choralarini o'tkazib turish, mollarni zoogigenik talablar asosida parvarishlash, ularda kunlik mosion (sayrqilish) bo'limiga erishishi kabilar veterinariya mutaxassislarining asosiy vazifalari hisoblanadi. Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun veterinariya mutaxassisida chuqur bilim, malaka va

amaliy tajriba bo'limi zarur. Bu fazilatlar ta'lim muassasalarida beriladi va shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23-martdagi PQ-308-son "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga chetdan qoramollar zooveterinariya, asbob uskunalari olib kelish uchun tegishli imtiyozlar berishga hamda chorvachilik sohasidagi mavjud muammolar hal qilib berilganiga qaramasdan bugungi kunda tashkil qilingan zooveterinariya punkitlarining va chorva mollarini suniy qochirish punkitlarining 62 foizi to'liq jihozlanmagan, ular uchun zarur asbob uskunalari olib kelish uchun Ishtihon, Toyloq tumanlarida qoniqarsiz tashkil yetilgan chorva mollarini sun'iy qochirish bo'yicha tuzilgan shartnomalar viloyatda 20% bajarilgan xolos. Shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga qoramol sotib olish uni joriy yilda mikro kreditlar berish ishlari Bulung'ur, Samarqand, Urgut tumanlarida yaxshilashgan. Viloyat tumanlarida chorva mollari uchun oziqa yekinlari yetishtirish dag'al hashakjamg'arish ishlarida aniq rejalashtirilmasdan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklariga don korxonalari tomonidan tashkil yetilgan shaxobchalar orqali omixta yem sotish ishlari Ishtihon, Narpay tumanlarida qoniqarsiz ahvolda.

Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida:

Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish hamda mustahkamlash birinchi navbatda qoramol boqish va yetishtirish, shu asosda qishloq aholisining bandlik darajasini ko'tarish va oilalar daromadini oshirishning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanish.

Respublika xalq xo'jaligining barcha sohalarida shu jumladan, qishloq xo'jaligi va uning ajralmas qismi hisoblangan chorvachilikda o'tkazilayotgan islohatlar o'zini ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Bunga misol qilib chorvachilik mahsulotlarining asosiy qismi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida yetishtirilayotganligini keltirish mumkin. Binobarin yangi tashkil yetilgan fermer xo'jaliklari ilmiy va ommaviy tavsiyalar bilan ta'minlash, ularni rentabillik

ho'jaliklariga aylantirish sohani istiqbolini belgilaydi. Chunki keyingi besh yilda chiqarilgan farmon va qarorlar aynan shu maqsadlarga qaratilgan.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-apreldagi "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirishni yanada kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ-842- qarori chorvachilikni bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlantirish borasida katta imkoniyat yaratdi.

Sohaga oid ye'lon qilingan barcha farmon va qarorlar respublikamizda xo'jalik toifasidan qat'iy nazar chorvachilik bilan shug'ullanuvchilarning daromadini oshirish va ichki bozorni yetarli miqdorda sifatli maxsulotlar bilan to'ldirishni ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek chorvador uchun qulay shart sharoitlar yaratib, ularga qo'yidagi imkoniyat va imtiyozlarni berdi.

-qonunchilikda shaxsiy yordamchi va fermer xo'jaliklarda qoramol parvarishlash bilan shug'ullanadigan shaxslar ish bilan band axoli toifasiga kirishi, ularga mexnat daftarchasi berishni va ish staji hisobga olishi, nafaqa yoshiga yetganda nafaqa olishi xuquqiga ega bo'lish;

-chorvachilikka ixtisoslashgan fermer va boshqa xo'jaliklar hamda parrandachilik korxonalariga ajratilgan sug'oriladigan yerlar faqat yem hashak yekini uchun paxta yekishda foydalanmaslik;

-omixta yem, shrot, shuluxa, kepak va boshqa ozuqa turlari xarid qilish mumkin bo'lgan oziqa sotish bo'yicha yagona ixtisoslashgan shaxobchalarni tashkil yetish;

-zooveterinariya xizmatlari ko'rsatish tuzilishini tanada yaxshilash, veterinariya laboratoriyalari va veterinariya punkitlari zamonaviy uskunalar va inventarlar bilan jihozlash, ularni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash.

Joriy yilning mamlakatimizda " Keksalarni e'zozlash yili" deb nomlanganligi halqimiz irodasi, yurtdoshlarimiz qalbidagi tuyg'ularning to'liq ifodasi bo'ldi. Yurtdoshimiz Konstitusiyaning yigirma ikki yiliga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek, " Bugun turli sohalarda

erishayotgan yutuqlarimizda ota-onalarimiz, mo'tabar qariyalarimizning unitilmas va ulkan xizmati borligini, biz ular oldida umrbod qarzidor ekanimizni unutmasligimiz, qo'limizdan kelganicha ularning og'irini yengil, umrini uzoq qilishni o'zimizning insoniy burchimiz, deb bilishimiz lozim".

Ayni paytda O'zbekistonda 60 yoshgan oshganlar soni 2 million 873 mingdan ziyod ekanligi, ayni kunda 225 ming nafar 80 yoshdan, 44 ming nafar 90 yoshdan, 8 ming 700 nafar 100 yoshdan oshgan tabarruk qariyalar yashayotganligi yurtimizda umrboqiylik darajasi oshib borayotganligidan dalolat beradi. Turmushimiz farovonlashib borsa, umrboqiylik darajasi ham shuncha oshadi.

"Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturi 2015 yil 18 fevralda qabul qilindi, u oltita bo'lim, 66 ta bandni o'z ichiga oladi. Dastur keksa avlodga e'tibor va g'amho'rlikning chinakam namunasi bo'lgan tom ma'nodagi tarixiy hujjatdir. Unda halqimiga xos azaliy qadriyat – keksalarga bo'lgan hurmat va ehtiromning barcha jihatlari, qariyalarning kundalik hayoti bilan bog'liq bo'lgan barcha holatlar o'z ifodasini topgan, birorta masala e'tibordan chetda qolmagan.

Davlat dasturida keksalarga g'amxo'rlik va e'tiborni kuchaytirishi; ularning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish; pensiya ta'minoti va ijtimoiy qo'llab – quvvatlash, davlat hizmatlari ko'rsatishning eng qo'lay tizimini shakllantirish; uchun va mehnat faxriylarini moddiy va ma'naviy qo'llab – quvvatlash; tibbiy va ijtimoiy xizmat ko'rsatish darajasi va sifatini oshirish; mamlakatimizning mudafaa qudratini mustahkamlash; ijtimoiy – iqtisodiy va intellektual salohiyotini kuchaytirish; tinchlik, totuvlik va barqarorlik muhitini mustahkamlashga bebaho hissa qo'shgan, barkamol avlodni tarbiyalashda faol ishtirok etib kelayotgan keksa avlod vakillariga alog'ida ehtirom ko'rsatish, ularning jamiyatdagi mavqeyini oshirish ko'zda tutilgan. Har bir keksaga e'tiborni qaratish, ularning turmushi va dam olishini tashkil etish sifatini oshirish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratish, mahallalarda keksalar va nogironlarga doimiy e'tiborni kuchaytirishga qaratilgan mahsus komissiyalar tuzish tadbirlari belgilangan.

“Keksalarni e’zozlash yili” Davlat dasturida belgilangan chora – tadbirlarning amalga oshirishi ozod va obod Vatan, erkin va foravon hayot barpo etish yo’lida qo’yilgan muhim qadam sifatida tarixga kirishi shubhasiz.

1.1. Mavzuning dolzarbligi.

Hozirda butun dunyoda, jumladan, Respublikamizda ilm-fan taraqqiyotiga katta ahamiyat berilmoqda. Buning natijasi sifatida dorixonalarimizda kundankunga ko’payib borayotgan turli xil dori vositalarini ko’rishimiz mumkin. Ular orasida tobora kengroq o’rinni egallayotgan o’simlik vositalari va quritilgan organlarini ko’plab uchratish mumkin. Ya’ni keyingi paytlarda sintetik dori vositalari o’rinni tabiiy shifobaxsh dorivor o’simliklar qaytadan egallamoqda.

Ma’lumki, har qanday sintetik dori vositasining biron-bir boshqa organga zararli ta’siri bo’lishi ehtimolligi yuqori sanaladi. Chunki bir organni davolash uchun ishlatiladigan sintetik dori boshqa bir organni zaharlashi yoki unga zararli ta’sir ko’rsatishi mumkin. Ammo dorivor o’simliklardan tayyorlangan dori darmonlar inson organizmiga salbiy ta’sir ko’rsatmaydi.

Dorivor o’simliklar aholi o’rtasida keng ishlatib kelinadi. Odamlar, ko’pincha, ularni yig’ib oladilar va ulardan uy sharoitida o’zlari dori tayyorlab oladilar. Bunday hollarda o’simlik tarkibida moddalar borligini, ularning kimyoviy xossalari bilmay turib tayyorlangan dori vositalari foyda o’rniga zarar keltirishi mumkin.

Shuni esda tutish kerakki, ayrim zaharli o’simliklar tashqi ko’rinishi dorivor o’simliklarga o’xshash, ammo ularning farqini bilmaslik ayanchli oqibatlarni sodir bo’lishiga sabab bo’lishi mumkin. Ayrim dorivor o’simliklar tarkibida kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar mavjud. Ulardan tayyorlangan dorilarda zaharli moddalar miqdori meyordan ortiq bo’lsa ham zaharlanishga yoki boshqa turli kasalliklarga olib kelishi mumkin. Bunday zaharli dorivor o’simliklarga misol tariqasida adonis, bangidevona, isiriq, ko’knor, mingdevona, qirqbo’g’im, qoncho’p kabilarni keltirishimiz mumkin.

Ayni paytda dorivor o'simliklarni yig'ib olish muddatlarining ahamiyati ham nihoyatda muhim, chunki ulardagi ta'sir etuvchi biologik aktiv moddalarning miqdori turli vaqtlarda turlicha bo'ladi.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin, barcha vohalarda, viloyatlarda, xususan, Qashqadaryoda ham ko'plab qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish korxonalari jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotir. Natijada ko'plab tabiiy maydonlar o'zlashtirilib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yaratish uchun zamin tayyorlanmoqda. Shunday sharoitda Respublikamiz hududida bugungi kunda mavjud bo'lgan dorivor o'simliklarni o'rganish va ularni maxsus o'rmon xo'jaliklarida yoki o'simliklarni yetishtirish bilan shug'ullanuvchi boshqa maxsus tashkilot va bog'larda o'stirish va ko'paytirishni yo'lga qo'yish dolzarb muammo hisoblanadi. Mamlakatimizning janubiy hududida uchraydigan endem va relik o'simlik turlari yer yuzining boshqa hiech qayerida uchramaydi. Ularni saqlab qolish, kerak bo'lsa farmasevtika sanoatida dorivor o'simlik sifatida foydalanish kelajak avlod oldidagi muhim vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng boshqa sohalaridagi kabi tibbiyot va farmasevtika sohalariga ham katta ahamiyat bermoqda. Bu yo'nalishda qilingan islohotlar natijasida tibbiyot oliy o'quv yurtlari va bilim yurtlarida ta'lim sifatiga va tibbiyot markazlari ish faoliyatiga alohida e'tibor qaratildi. Tibbiyot bilan bir vaqtda unga juda yaqin bo'lgan farmasevtika sanoatining rivojlantirilishi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Natijada bugungi kunda ko'plab dori-darmonlar ishlab chiqaruvchi korxonalar vujudga keldi va ularda ko'plab dori-darmonlar ishlab chiqarila boshlandi. Shu bilan bir qatorda sharq va g'arb mamlakatlarining halq tabobati va zamonaviy tibbiyotning eng ilg'or yangiliklarini o'zlashtirishga ham e'tibor qaratilayotir.

Bu ishlar natijasida Respublikamizga ko'plab yangidan-yangi tibbiy texnologiyalar va davolash metodlari kirib keldi hamda dorivor o'simliklarni o'rganishga e'tibor ham ortib bordi. Chunki yurtimiz zaminida o'sadigan dorivor o'simliklar va ulardan tayyorlanadigan dori darmonlar kimyoviy usullar bilan

olinadigan dorilardan farqli ravishda inson organizmiga uchun hyech qanday zarar yetkazmaydi.

Shunday ekan dorivor o'simliklarini o'rganish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Chunki o'simliklar qoplamida 1200 dan ortiq turi mavjud va ularning 30% dan ortig'i dorivor o'simliklardan iborat bo'lgan bu o'lkada yorug'likning miqdori boshqa hududlarga nisbatan ancha balandligi dorivor o'simliklar tarkibida alkaloid, glikozid, saponin va boshqa darmonbardor ximiyaviy birikmalarning ko'pligi bilan ajralib turadi.

Mamlakatimiz turli xil kasalliklarni dorivor o'simliklar asosida davolash bo'yicha o'zining ko'p asrlik an'alariga egadir. Buyuk yurtodoshlarimiz Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sinodek mutafakkir olimlarimiz tomonidan qadimda tibbiyot amaliyotida qo'llashga tavsiya etilgan boy merosimiz asosida bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Bioorganik kimyo instituti, O'simlik moddalari kimyosi instituti, Toshkent farmasevtika instituti va boshqa bir qator oliygohlar tomonidan ilmiy asoslangan va klinik sinovlar natijasida o'z tasdig'ini topgan respublikamiz boy o'simliklar dunyosining namunalari bugungi kunda tibbiyot amaliyotida o'z o'rini topdi.

Toshkent farmasevtika instituti olimlari (Sh.F.Iskandarova - ffn, dosent, X.M.Komilov - ffd, X.U.Aliyev - tfd, professor) tomonidan "Fitoichimliklar resepturasi" uslubiy qo'llanmasi tayyorlanib, umumta'lim maktablari, kollej va liseylar, oliy ta'lim hamda tibbiyot muassasalari fitobarlarida fitoichimlik damlamalarini tayirlash, saqlash va qo'llash bo'yicha amalda foydalanish va rioya qilish uchun tavsiya etilgan. Yuqoridagilarga asosan dorixonalarda fitobarlar tashkil etish yo'li bilan aholiga dorivor o'simlik damlamalarini yetkazib berish alohida dolzarblik kasb etadi.

Ma'lumki dorivor o'simliklar asosida tayyorlanadigan dori vositalari, shu jumladan dorivor damlamalar qator afzalliklarga ega bo'lib, ular quyidagilarda ifodalanadi:

- dori vositasining tegishli samaradorligiga ega bo'lgan holda, bezararliligi (kam zaharliligi);

- ularning “mayin” doimiy ta’siri;
- tez va oson tayyorlash imkoniyatlari mavjudligi;
- alohida murakkab texnologik uskunalar talab etilmasligi;
- arzonligi va boshqalar.

Yuqoridagilarga asosan mahalliy korxonalar tomonidan 100 dan ortiq o’simlik xom ashyolari tibbiyot amaliyotida qo’llashga ruxsat etilgan bo’lib, ular 28 farmakoterapevtik guruhlariga oiddirlar. Tibbiyot amaliyotida o’simlik xom ashyolaridan oddiy (bir turdagi o’simlik xom ashyolaridan) va murakkab (ikki va undan ko’p turdagi o’simlik xom ashyosidan) reseptlar asosida o’simlik damlamalarini tayyorlash tibbiyot va veterinariya amaliyotida qo’llash yo’lga qo’yilgan.

Fitonsidlarni veterinariya amaliyotida ko’plab qishloq xo’jaligi hayvonlari orasida uchrab turadigan turli xil kasalliklarni davolashda qo’llab, ularning o’ziga xos ta’sir xususiyatlarini o’rganish dolzarb hisoblanadi.

2. ADABIYOTLAR SHARXI

2.1. Dorivor o’simliklar va ularni yetishtirishning qisqacha tarixi

Odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish o’simliklar-giyohlar. Yer yuzida dorivor o’simliklarning 10—12 ming turi bor. 1000 dan ortiq o’simlik turlarining kimyoviy, farmakologik va dorivorlik xossalari tekshirilgan. O’zbekistonda dorivor o’simliklarning 577 turi mavjud. Shulardan hozirgi vaqtda 250 turi ilmiy tabobatda ishlatilmoqda. Dorivor o’simliklarning organizmga ta’siri ularning tarkibidagi birikmalarning miqdoriga bog’liq. Bu birikmalar o’simlikning har xil qismlarida turli miqdorda to’planadi. Dori tayyorlashga o’simlikning

kerakli qismlari turli muddatlarda yig'iladi. Masalan, po'stloq, kurtak erta bahorda, barg o'simlik gullashi oldidan yoki gullaganda, gullari to'la ochilganda, meva va urug'lari pishganda, yer osti organlari (ildizi, ildizpoyasi va piyozi) erta bahorda yoki kech kuzda olinadi.

Dorivor o'simliklarning ta'sir etuvchi moddasi — alkaloidlar, turli glikozidlar (antroglikozidlar, yurakka ta'sir etuvchi glikozidlar, saponinlar va b.), flavonoidlar, kumarinlar, oshlovchi va boshqa shilliq moddalar. Efir moylari, vitaminlar, smolalar va boshqa birikmalar bo'lishi mumkin. Ko'p o'simliklardan mikroorganizm va viruslarni yo'qotadigan antibiotiklar va fitonsidlarga boy preparatlar tayyorlanadi. Odatda bir guruhga xos o'zaro yaqin kimyoviy birikmalar bir oila yoki turkumga mansublarda uchraydi, shu bilan birga ba'zi kimyoviy birikmalar bir-biriga yaqin bo'lmagan, turli oilaga mansub o'simliklar tarkibida ham bo'lishi mumkin.

Qadim zamondan boshlab inson yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarni turli kasalliklarni davolashda foydalanib keladi.

Hozirgi davrda dorivor o'simliklarni turi ko'payib, xalq tibbiyoti shifobaxsh o'simliklar bilan boyigan.

Ilmiy tabobatda ishlatiladigan dorivor o'simliklarning aksariyati asrlar davomida xalq ishlatib kelgan o'simliklardan olingan. Xalq medisinasida qo'llanib kelinadigan dorivor o'simliklarni ilmiy tabobatda ishlatib bo'lmaydi. O'zbekistonda dorivor o'simliklardan ko'proq anor, achchiqmiya, bodom, dorivor gulxayri, yong'oq, jag'-jag', zubtutum, isiriq, itsigek, omonqora, pista daraxti, sachratqi, choyo't, shildirbosh, shirinmiya, shuvoq, yantoq, qizilcha, qoqio't va boshqalar tarqalgan. Achchiqmiyadan — paxikarnin, isiriqdan garmin, itsigekdan anabazin, omonqoradan galantamin, shildirboshdan sferofizin alkaloidlari olinadi. Anor po'stidan gijja haydovchi pelterin tanat va ekstrakt tayyorlanadi. Dorivor gulxayri preparatlari balg'am ko'chiruvchi va yumshatuvchi, jag'-jag' va lagoxilus dorilari qon ketishni to'xtatuvchi, pista bujg'uni va choyo'tdan tayyorlangan dorilar meda-ichak kasalliklarini davolovchi sifatida ishlatiladi. Dorivor o'simliklarni 2 xil tavsiflash qabul qilingan:

1. Ta'sir qiluvchi moddalarning tarkibiga qarab — alkaloidli, glikozidli, efir moyli, vitaminli va boshqalar;

2. Farmokologik ko'rsatkichlariga qarab — tinchlantiruvchi, og'riq qoldiruvchi, uxlatuvchi, shuningdek, yurak-tomir tizimiga ta'sir qiluvchi, markaziy nerv tizimini qo'zg'atuvchi, qon bosimini pasaytiruvchi va boshqa dorivor o'simliklar.

Toshkentdagi kimyo-farmasevtika zavodlarida O'zbekistonda o'sadigan va ekib o'stiriladigan dorivor o'simliklardan turli-tuman dorilar tayyorlanadi. Masalan, oqqurayning ildizi va mevasidan pesni davolashda qo'llaniladigan psoralen, yapon soforasi g'unchasidan vitamin A dek ta'sir etuvchi rutin, omonqoradan galantamin alkaloidi, kendordan strofantin, simarin, yurak glikozidlari va boshqa preparatlar olinib boshlandi.

Yuqorida aytib o'tilganidek hozirgi vaqtda tibbiyotda 250 ga yaqin o'simliklarning mahsulotidan foydalaniladi. Shu ko'rsatilgan dorivor o'simliklar mahsulotining 48% yovvoyi holda o'sadigan o'simliklardan, 30% turli tuproq iqlim sharoitida joylashgan xo'jaliklarning dorivor o'simliklar o'stiriladigan maydonlarida tayyorlanadi. Qolgan 22% „aralash“ guruhni tashkil qiladi, ya'ni bu guruh dorivor o'simliklar mahsuloti ham yovvoyi holda o'sadigan, ham plantasiyalarda o'simliklardan yig'iladi. Keyinchalik „aralash“ guruh dorivor o'simliklardan tayyorlanadigan dorivor mahsulotlarning salmog'i umumiy yig'iladigan dorivor mahsulot miqdorida yil sayin oshib borishi kutilmoqda.

Qanday sabablarga ko'ra sug'oriladigan maydonlarda o'stiriladigan dorivor o'simliklar mahsuloti yil sayin umumiy tayyorlanadigan mahsulotlar miqdoridan ko'payib bormoqda?

Buning sabablari ko'p bo'lib, asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Yil sayin dorivor o'simliklar mahsulotiga ehtiyoj o'sib borishi natijasida ularning xomashyosini tayyorlash miqdori ham ko'paymoqda. Bu esa o'z navbatida qator dorivor o'simliklarning ko'p o'sadigan joyida kamayib ketishiga, natijada ularning xomashyosini tayyorlanishini keskin chegaralanishi yoki butunlay to'xtatilishiga olib kelishi.

O'zbekistonda yovvoyi holda o'sadigan bozulbang va qoraqovuqlarning yer ustki qismi va piyozining ko'p tayyorlanishi natijasida ularni zaxirasi (miqdori) tabiiy o'sish joyida juda ham kamayib ketdi. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda bu o'simliklar O'zbekiston „Qizil kitobiga“ kiritildi. Shuning uchun ularning tabiiy xomashyosini o'sish joyida tayyorlash to'xtatildi va xo'jalik dalalarida hamda o'zlarini yovvoyi holda o'sadigan joylarida o'stirilmoqda. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

2. Dorivor o'simliklar mahsulotiga muntazam ravishda talabning oshib borishi va uni yovvoyi holda o'sadigan o'simliklar hisobiga qondirilmasligi natijasida shu o'simliklarni sug'oriladigan mintaqalarda o'stirishga to'g'ri kelmoqda.

3. Ba'zan kamyob dorivor o'simliklarga talab katta bo'lsa-yu, lekin ular yovvoyi holda, yig'ish uchun noqulay joylarda (masalan, Kavkaz va Qrimning tog'li tumanlarida o'sadigan belladonna va boshqalar) yoki kam miqdorda, katta hududlarda tarqoq holda (masalan, Rossiyaning Yevropa qismida keng tarqalgan, lekin siyrak uchraydigan dorivor valeriana va boshqalar) o'ssa, bu dorivor o'simliklar mahsulotini tayyorlash sug'oriladigan yerlarda o'stirishdan qimmatga tushadi. Shuning uchun bunday o'simliklarni ham xo'jaliklar dalalarida o'stirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. Yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklar xomashyosini katta hajmda tayyorlashning qiyinchiligi, uni yig'ib olish uchun qishloq xo'jalik texnikasidan foydalanishning murakkabligi.

Plantasiyada o'stiriladigan dorivor o'simliklar mahsulotini qulay sharoitda va ta'sirchan kimyoviy biologik faol moddalari ko'p to'plangan davrda turli mexanizmlar yordamida yig'ib olish mumkin.

5. Qimmatbaho, tibbiyot uchun juda zarur bo'lgan dorivor mahsulot respublikamizda uchramaydigan tropik yoki subtropik iqlimli davlatlarda o'sadigan o'simliklardan tayyorlanadigan bo'lsa, imkoni boricha shu o'simliklarni o'zimizda o'stirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yangidan ekilishi kerak bo'lgan dorivor o'simliklar agrotexnikasi VILR hamda uning tajriba stansiyalarida, qisman fanlar akademiyasi (FA), universitetlar va oliy o'quv yurtlarining botanika bog'larida ishlab chiqilmoqda. Bu sohada VILR va uning tajriba stansiyalarini xizmati katta bo'lib, ularda chet eldan keltirilgan bir qancha tropik va subtropik dorivor o'simliklarni Sobiq Ittifoq iqlimida o'stirishning agrotexnika qoidalari ishlab chiqilgan. Mamlakatimizning turli hududlarida (zonalarida) joylashgan xo'jaliklarida quyidagi dorivor o'simliklar o'stirilmoqda: xin daraxti, koka butasi, aloe turlari, ortosifon, dixroa, katta kella, sano (kassiya) turlari, meksika bangidevonasi, kalanxoy turlari, uyatchang mimoza, to'q qizil passiflora, rauvolfiya turlari, pushti katarantus (bo'rigul), yumaloq bargli stefaniya, evkalipt turlari, bo'lakli ituzum va boshqalar.

Sug'oriladigan maydonlarda o'stiriladigan dorivor o'simliklar yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklardan katta farq qiladi, ya'ni o'stiriladigan dorivor o'simlik mahsulotida begona o'simliklar aralashmasi bo'lmaydi. Agrotexnika qoidalari asosida o'stirilgan dorivor o'simliklar serhosil va biologik faol moddalarga boy bo'ladi.

Dorivor o'simliklarni serhosil navlarini tanlab olish, ularni chatishtirish yoki poliploidli (xromosom sonlarini oshirish) navlarini olish yo'li bilan ekiladigan dorivor o'simliklarning hosildorligini va tarkibidagi biologik faol bo'lgan kimyoviy birikmalar miqdorini oshirish mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan sabablarga ko'ra, ba'zi bir dorivor o'simliklarni o'stirish va ularning mahsulotlarini tayyorlash yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklar mahsulotini yig'ishga qaraganda iqtisodiy jihatdan ancha arzonga tushadi.

O'zbekistonda dorivor o'simliklar asosan turli tuproq iqlim hududlarida joylashgan Qishloq va suv xo'jalik vazirligiga qarashli xo'jaliklarda ekiladi.

O'zbekiston Respublikasida birinchi marta 1973 yilda Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi xo'jaliklarda dorivor o'simliklar ekila boshladi. Keyinroq (1978 yilda) Namangan viloyati Pop tumanida Ibn Sino nomli dorivor o'simliklar o'stiriladigan xo'jalik tashkil qilindi. Bu xo'jalik dalalarida qalampir yalpiz,

dorivor marmarak (mavrak), dorivor tirnoqgul, na'matak, achchiq shuvoq (erman), bo'lakli ituzum, mayda gulli tog'rayxon va boshqa o'simliklar o'stirilgan. Ulardan yig'ilgan mahsulotlar O'zbekiston dorixonalarini ta'minlash uchun hamda Chimkent kimyo-farmasevtika zavodi va boshqa korxonalarga jo'natilgan.

Hozirgi kunda dorivor o'simliklarni o'stirib yetishtiradigan maxsus xo'jaliklar Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo hamda Toshkent viloyatlarida tashkil qilingan.

Respublikamizning qariyb hamma viloyatlaridagi „Farmasiya“ ishlab chiqarish birlashmalari qoshida dorivor o'simliklar o'stiradigan maydonchalar tashkil qilingan bo'lib, ularda viloyat dorixonalar talabiga binoan tegishli o'simliklarni o'stirmoqdalar.

Hozirgi kunda Toshkent viloyati Chirchiq tumanidagi dorivor o'simliklarga ixtisoslashgan Oxunboboyev nomli ixtisoslashgan xo'jalik dalalarida qalampir yalpiz, dorivor marmarak (mavrak), dorivor tirnoqgul, dorivor moychechak, besh bo'lakli arslonquyruq, pol-pola, na'matak va boshqa dorivor o'simliklar o'stirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi FA ga qarashli Toshkent botanika bog'ining sobiq katta ilmiy xodimi Q. H. Xo'jayev, keyinchalik shu bog'ning dorivor o'simliklarni madaniylashtirish va iqlimga moslash laboratoriyasining mudiri, katta ilmiy xodim Yu. M. Murdaxayev Toshkent farmasevtika instituti farmakognoziya va botanika kafedralarining ilmiy xodimlari bilan hamkorlikda qardosh respublikalari hamda dunyoning boshqa hudud (region)laridan keltirilgan 67 turdagi dorivor o'simliklarni Toshkent shahri iqlimida o'stirishga erishdilar. Ularning fikrlaricha, yuqorida tirnoqgul, qalampir yalpiz, dorivor marmarak (mavrak), dorivor valeriana, fenxel (dorixona ukropi), dorivor moychechak, qora andiz, ajgon (ziran karmoni), arpabodiyon, oddiy dastarbosh, na'matak turlari, butasimon amorfa, qizil angishvonagul, yoyiq erizimum, kendir turlari, Kavkaz yamsi, Man'chjuriya araliyasi, tog' jumrut, sano (kassiya) turlari, patriniya, tuxumak, besh bo'lakli arslonquyruq, dorivor zangvazorba, yarim butasimon sekurinega, bo'rigul turlari,

qoraqobiq turlari, belladonna, meksika bangidevonasi, pol-pola, bo'lakli ituzum, gangituvchi buzulbang va boshqa dorivor o'simliklarni yetishtirish mumkin.

Hozirgi kunda tabiiy holda o'sayotgan dorivor o'simliklarni zaxiralari insonlar ta'sirida kamayib bormoqda. Buning o'rnini to'ldirish va xalqimiz ehtiyojini qondirish maqsadida dorivor o'simliklar turlarini ko'paytirish va ularni O'zbekistonning tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda sug'oriladigan mintaqalarda ekib o'stirish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbekistonda farmasevtika sanoatini dorivor o'simliklar xomashyosi bilan ta'minlash maqsadida yaqin yillar ichida dorivor o'simliklarni ekib o'stiradigan fermer va ixtisoslashgan xo'jaliklarni tashkil qilish va ko'paytirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Fitoterapiya deb, dorivor o'simliklar, ulardan tayyorlangan va olingan preparatlar bilan bemorlarni davolash to'g'risidagi fanga aytiladi.

Fitoterapiya fani farmakologiyaning ajralmas qismi bo'lgani bois ma'lumotni farmakologiya to'g'risidagi tushuncha bilan boshlaymiz.

Farmakologiya yunoncha Pharmacon-dori, logos-ta'limot, so'zlaridan olingan bo'lib, dorilar to'g'risidagi ta'limot, ma'nosini bildiradi.

Lekin hozirgi farmakologiya faniga bunday umumiy ta'rif berish mutlaqo kifoya qilmaydi. Uning tub ma'nosida aniq maqsad va vazifalar yotadi. Ular asosan quyidagilardan iborat.

1. Farmakologiya turli kimyoviy birikmalarning, shu jumladan o'simlik moddalarining ham, inson va jonivorlar organizmiga ta'sirini, shu tufayli a'zolar va sistemalar faoliyatida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni o'rgatadi.

2. Mazkur o'zgarishlarning kelib chiqish sabablarini, nima bilan bog'liqligi va izohlanishini yoki, boshqacha aytganda, kimyoviy moddalarning ta'sir mexanizmini aniqlaydi.

3. Yangi dori moddalarini (fitopreparatlarni ham) izlash, topish, tajribada tekshirib ko'rish, o'rganish va ularni tibbiyot amaliyotiga tatbiq yetish bilan shug'ullanadi.

4. Dori vositalari bilan bemorlarni davolash va kasallikning oldini olish maqsadida ularning dozalarini aniqlash, ishlatilish qoidalari, nojo'ya ta'sirlari va boshqa masalalarni hal qiladi.

Turli kimyoviy moddalarning, chunonchi dorivor o'simliklardan tayyorlangan va olingan moddalarning ham, organizm a'zolari va sistemalari faoliyatiga ta'siri laboratoriya jonivorlarida sinab ko'riladi. Shuning uchun ham farmakologiyaning ushbu asosiy yo'nalishi yeksperimental farmakologiya deb yuritiladi.

Farmakologik tekshirishlarning ko'lami juda keng. Ular bir butun organizmga qaratilgan bo'libgina qolmay, balki to'qima hujayralarini, hujayra ichki muhitini, reseptorlarni, biokimyoviy va boshqa jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Farmakologiya fani ushbu vazifalarni ilmiy va amaliy tomondan amalga oshirishda kimyo, biokimyo, farmakognoziya, botanika, biologiya va tibbiyot fanlarining yutuqlariga tayanadi va ular bilan uzviy bog'langan. Avvalo fiziologiya, patologik fiziologiya va biokimyo fanlari bilan yaqindan aloqada bo'ladi. Masalan, dorivor o'simliklar va boshqa kimyoviy moddalarning hayvonlar organizmiga ta'sirini o'rganishda uning fiziologik faoliyatida namoyon bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlaydi.

Patologik jarayonlarga davolash ta'sirini aniqlash maqsadida patologik va fiziologik uslublardan (kasalliklarning yeksperimental modellari va b.) foydalaniladi. Ushbu va boshqa farmakologik izlanishlarda biokimyoviy usullar keng miqyosda qo'llaniladi. Farmakologiyaning rivoj topishi, bir tomondan ushbu fanlar yutuqlariga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, aksincha, farmakologiyaning rivojlanishi turli fiziologik, patologik va biokimyoviy jarayonlarning kelib chiqish sabablarini o'rganishga, binobarin, ushbu jarayonlarni farmakologik vositalar yordamida boshqarishga imkoniyat tug'dirdi.

Shu bilan birga farmakologiya farmasiya fanlari bilan (farmakognoziya, farmasevtik kimyo, dorilar texnologiyasi, biotexnologiyasi) ham yondashadi: masalan, dorivor o'simliklardan tayyorlangan yoki olingan moddalarning farmakologiyasini tekshirish, dori vositalarining farmakologik ta'siri ularning

kimyoviy tuzilishiga bog'liqligini va shu tariqa yangi biologik faol kimyoviy moddalar yaratish va nihoyat ushbu dorilarning shaklini va olinish texnologiyasini ishlab chiqish shular jumlasidandir.

Turli kimyoviy birikmalarning (fitopreparatlarning ham) organizmga ta'sirini va ta'sir mexanizmini o'rganish farmakodinamika so'zi bilan ifodalanadi. Ularni organizmga kiritish yo'llari, so'rilishi, oqsillar bilan bog'lanishi, metabolizmga uchrashi, tanada tarqalishi va yig'ilishi, organizmdan chiqib ketish yo'llarini o'rganish esa farmakokinetika ning vazifasidir. Dori vositalarining farmakodinamikasi bilan bir qatorda ularning farmakokinetikasi ham katta ahamiyatga ega, chunki dori vositalarning yeffekti-samarasi, ta'siri ularning farmakokinetikasi bilan uzviy bog'liqdir.

Farmakologiyaga juda yaqin bo'lgan toksikologiya fani odam va jonivorlar organizmiga turli kimyoviy birikmalar, shu jumladan o'simliklarning zaharli ta'sirini o'rganadi. Umuman olganda, ko'pchilik dori vositalari katta miqdorlarda organizm uchun zaharli bo'lishi va, aksincha, ko'pchilik zaharli moddalar ma'lum bir dozada organizmga ijobiy ta'sir yetib, foydali bo'lishi mumkin.

Farmakologiyaning tarixi fitoterpiyadan boshlangan desak xato bo'lmaydi. Chunki u insoniyat tarixi kabi qadimiydir. Ibtidoiy davrda insonlar asosan dori moddalari sifatida o'z tevarak-atrofidagi turli o'simliklardan foydalanganlar. Ular jonivorlarga taqlid qilib yoki tasodifan o'simlik ta'siriga ye'tibor berib, uni davolash maqsadida qo'llaganlar. Yebers (1837-1898 yy.) topgan qadimiy yodgorlik va qoldirilgan hujjatlardan papirus shuni isbotlaydi. Qadim Misrda o'simlikdan tayyorlangan ayrim dorilar opiy, kanakunjut moyi va boshqalar davolash uchun qo'llanilgan. Bu davr farmakologiyaning shaxsiy tajribaga asoslangan yempirik davri deb yuritiladi.

Farmakologiya fan sifatida XVIII-XIX asrlarda rivoj topdi. Ayrim alkaloidlar va boshqa moddalarning dorivor giyohlardan ajratib olinishi va shu bilan birga tajriba o'tkazish usullarining topilishi, dori moddalari ta'sirini o'rganishda alohida burilishga olib keldi.

Farmakologiya va fitoterapiyaning fan sifatida asrlar mobaynida shakllanishida quyidagi olimlarning qo'shgan hissalarini beqiyosdir.

Gippokrat (yangi yeragacha 480-372 yy.). Uning asarlarida ilk bor kasallik tarixi keltirilgan, buyuk olim bemorga shaxsiy yondoshish kerakligini targ'ib yetgan. Dorilar to'g'risida turli ma'lumotlar qoldirgan, insonni tabiat bilan bir butun deb hisoblagan.

Galen (yangi yeraning 129-211 yy) -u dori preparatlari tayyorlashning bir qancha usullarini topgan. Dori tayyorlash texnologiyasiga asos solgan. Uning usuli bilan tayyorlangan asosan o'simlik preparatlari «galen preparatlari» deb yuritiladi.

Ko'proq tabobat sohasida qalam tebratgan va zaxmatkash xalqimiz dardiga malham bo'lgan olimlarimizdan Abu Bakr ar Roziy (865-925yy.), Abu Nasr ibn Iroq (1035 yilda vafot yetgan), Abu Rayxon Beruniy (973-1048yy) singari allomalarni qayd yetish lozim. Bu siymolar jaxon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganlar.

Yuqorida nomlari zikr qilingan olimlar bilan deyarli bir vaqtda ijod yetgan, O'rta Osiyoning qomusiy olimi, tabobat ilmining asoschisi Abu Ali ibn Sino bular ichida o'ziga xos o'rin tutadi.

Ibn Sino 980 yilning 16 avgustida Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida dunyoga kelgan va 1037 yili Xamadonda vafot yetgan. Uning maqbarasi ustida 12 ustundan iborat gumbaz qad ko'tarib turadi. Bu Ibn Sino davridagi asosiy 12 ta fan yo'nalishini va bu yo'nalishlarning hammasini Ibn Sino mukammal yegallaganidan darak beradi.

Ibn Sino o'zining qisqa yashab o'tgan umrida o'zidan 131 ta va shogirdlari bilan xamkorlikda yaratilgan jami 242 ta asarlar qoldirgan. Tibbiyot olamida dong'i olamga taralgan asarlaridan biri 5 jilddan iborat "Tib qonunlari" asaridir.

Umuman Ibn Sino tibbiyotga bag'ishlangan 55 ta asar yozgan. Shundan 31 tasini shaxsan o'zi, qolgan 24 tasini esa o'z shogirdlari bilan birga yaratgan. Ibn Sinoning mazkur "Tib qonunlari" kitobi 5 qismdan iborat.

Kitobning I qismida tibbiyot fanining umumiy masalalari sxematik tarzda va sistema bilan bayon qilingan.

Kitobning II qismida esa dorivor moddalarning qomusiy bayoni batafsil yoritib berilgan. Unda o'sha davrdagi 811 ta o'simlikning shifobaxsh xususiyatlari keltirilgan. Shu bilan birga bu qismda minerallar, hayvonot olamiga mansub dorivor moddalar ham o'rin olgan. Bu o'simliklarning 165tasi hozirgi zamon tabobatining davolash amaliyotida qo'llanilmoqda.

Kitobning III qismida inson organizmida qayd yetiladigan xususiy, ya'ni mahalliy va umumiy kasalliklar ustida to'xtalib o'tilgan va bunda 22 kasalliklarning banddan iborat ta'rifi keltirilgan.

Kitobning IV qismida insonlarda uchraydigan xastalikni xirurgik operatsiya bilan davolash, isitma va og'ir holatlar, xavfli o'smalar, o'tkir va surunkali yuqumli kasalliklar va boshqalar xususida ma'lumotlar bayon qilingan.

Kitobning V qismi dorilar farmakopeyasiga bag'ishlangan bo'lib, unda oddiy va murakkab dorilarni tayyorlash usullari va ularni turli xil kasalliklarda ishlatish yo'llari tasvirlab beriladi.

Ibn Sinoning «Tib qonunlari»da keltirilgan dorivor o'simliklar, ularning ishlatilishi va ishlatish usullari alohida ahamiyatga sazovordir. Chunki Ibn Sino o'zigacha o'tgan tabiblarning tajribalarini sinchiklab o'rganib, ularni yanada mukammallashtirgan, ularga yangi muolajalarni qo'shib, o'sha zamondagi xalq tabobatida ishlatib kelingan dorivor o'simliklar va mevalarning tibbiyotdagi ahamiyatini har tomonlama ochib bergan. Shuning uchun ham Ibn Sino merosini o'rganish, u ishlatgan dori vositalarini ilmiy tomonidan asoslab berish va hozirgi zamon tibbiyot amaliyotiga tatbiq yetish farmakolog va provizorlarning davr talabidan kelib chiqqan muhim vazifalari qatoriga kiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olib Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov 1999 yil 6 yanvarda "Ibn Sino xalqaro jamg'armasini qo'llab-quvvatlash" to'g'risida maxsus farmon chiqargan.

Ushbu farmonda jumladan: «Ibn Sinoning ijodiy merosini chuqur o'rganish ishlarini tashkil yetish, buyuk olim asarlarini tartibga solish va ularni nashr yetishga ko'maklashish va Ibn Sinoning tibbiy va ilmiy-ma'naviy merosiga oid tadqiqotlar olib borishni, olimlarning bu boradagi ilmiy faoliyatini rag'batlantirish hamda tibbiyot va dorishunoslik soxasidagi yeng yaxshi ishlar uchun Ibn Sino nomidagi mukofot ta'sis yetish va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash» masalalari ko'tarilgan. Ishonamizki, ushbu farmon o'z ijobiy natijalarni beradi.

Fitoterapiyaning tarixida yana Abu Bakr Muhammad ibn Zakiriyo ar-Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ismoil al-Jurjoniyy va boshqalarning hissasi ham salmoqlidir.

Markaziy Osiyo olimlari va tabiblari ham ushbu yo'nalishda sezilarli iz qoldirganlar. Masalan, Yusuf Xaraviy (XIV asr) Muhammad Bobur saroyida xizmat qilgan, uning shaxsiy tabibi bo'lgan. 1507 yilda "Yaxshi kishilarga foydalar" asarini yozgan. Bunda o'simliklardan olingan sodda dorilarga keng o'rin berilgan va ayrim kasalliklarni davolash yo'llari ta'riflangan. Ushbu asar keyinchalik "Tibbi Yusufiy" nomi bilan sharq mamlakatlarida katta nufuzga yega bo'lgan.

Ne'matulloh al-Qirmoniy (XIV asr) ning "Dorivor moddalarning xususiyatlar dengizi" nomli asari bizgacha yetib kelgan. Kitobni yozishda muallif o'zidan oldin o'tgan Jolinus (Galen), Ibn Sino, Ibn al-Baytar kabilarning tibbiy asarlaridan keng foydalangan.

Ubaydulloh ibn Yusuf Ali al-Qahhol (XVI asr) Toshkentda yashab ijod yetgan. U o'zining mashhur "Kasalni tuzatish" asarida sharqda nomi tanilgan tabiblarning tibbiyotga oid asarlarini, jumladan Ibn Sino, Abu Bakr Roziy, Najmiddin Samarqandiy, Ismoil Jurjoniyy kitoblarini tahlil qilgan.

Farmakologiya fanining rivojiga rus olimlari R.Buxgeym, N.Nelyubin, O.V.Zabelin, I.P.Pavlov va boshqalarning qo'shgan hissalar nixoyatda katta. Farmakologiya fanida yorqin iz qoldirgan olimlardan biri V.P.Kravkovdir (1865-1924 yy.).

S.V.Anichkov (1892-1981 yy.) va V.V.Zakusov (1903-1986 yy.) N.P.Kravkovning yaqin shogirdlaridan hisoblanadi. Ularning ilmiy izlanishlari neyroyendokrinologiya, neyrofarmakologiya va boshqa sohalarga bag'ishlangan. Ular farmakologlarning katta maktabini yaratgan, Respublikamiz uchun ham qator mutaxassislar yetishtirganlar.

M.D.Mashkovskiy tomonidan tibbiyot amaliyotini yangi dori preparatlar bilan boyitish sohasida salmoqli ishlar qilingan. M.D.Mashkovskiy yaratgan va ko'p marta nashr yetilgan "Lekarstvennye sredstva" ("Dori vositalari") kitobi tibbiyot olamida katta shuhrat qozongan.

Respublikamizda farmakologiya fanini rivojlantirishda I.I.Markelov, N.N.Kompansev, I.K.Komilov, M.B.Sultonov va boshqalarning hissalarini salmoqlidir.

XVII-XIX asrlarga kelib, kimyo fanining rivoj topishi sintez yo'li bilan olingan dori preparatlarini yaratishga imkon berdi. Shu sababli ham keyingi davrda dorivor o'simliklarni o'rganish va ulardan dori preparatlari olish masalasiga ye'tibor kamaydi.

Sun'iy yo'l bilan olingan dori preparatlari bemorlarga davo qilishda samarali bo'lsa-da, ular har xil asoratlarni, nojo'ya holatlarni keltirib chiqarishi keyingi 10-15 yil ichida ma'lum bo'ldi. Ayniqsa ularning ko'pchiligi allergiya holati vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra bemorlarning 2,5-5% ini shunday dori preparatlari keltirib chiqargan turli asoratlar tashkil qiladi.

Bu borada shifobaxsh o'simliklarning hujayra tuzilishi va tarkibidagi kimyoviy moddalar bo'yicha odam tanasi metabolitlariga yaqin bo'lgani sababli ulardan tayyorlangan preparatlar ko'pincha kam zaharli yoki zaharsiz va bemorga ziyon yetkazmaydi. Ushbu dori-darmonlarning shifobaxsh ta'siri sintetik preparatlarga nisbatan kuchsizroq bo'lsa ham ularni kasallikning yengil shaklida, ayniqsa surunkali kechishida uzoq muddat qo'llash mumkin. Bundan tashqari, ushbu o'simliklar tarkibida turli va bir necha biologik faol

moddalarning mavjudligi ulardan tayyorlangan preparatlarning ta'siri har tomonlama bo'lishini ta'minlaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda so'nggi vaqtlarda dorivor o'simliklarga bo'lgan qiziqish ancha kuchaydi.

Shifobaxsh o'simliklarni o'rganish va ulardan keng miqyosda foydalanishda A.F.Gammerman, P.YE.Massagetov, S.S.Sahobiddinov va boshqalarning xizmatlari ancha salmoqlidir. Respublikamizda ushbu dorivor giyohlarni o'rganish va ulardan biologik faol moddalarni olish va tibbiyot amaliyotiga tatbiq yetishda akademik S.Yu.Yunusovning va u boshchilik qilgan O'zbekiston fanlar akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti olimlarining ilmiy va nazariy ishlari kimyo va tibbiyot olamida mashxurdir. Bular qatoriga farmakologlardan I.K.Komilov, M.B. Sultonov va boshqalarni kiritish mumkin.

Shuning bilan bir qatorda Toshkent Famasevtika instituti olimlari (H.X.Xolmatov, T.P.Po'latova va b.) ham bu xayrli ishga o'z munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

O'zbekiston shifobaxsh giyohlarga boy diyor. Respublikamizda 4000 dan ortiq yovvoyi o'simliklar o'sadi. Shulardan 100 dan ortiqrog'i tibbiyot amaliyotida dori vositasi sifatida qo'llanildi. Xalq tabobatida esa xududimiz o'simliklaridan 600 ga yaqini dorivor hisoblanadi. Bu degan so'z respublikamizda o'sadigan va o'stiriladigan shifobaxsh o'simliklar soni juda ko'p va ular yangi dori-darmonlar yaratishda bitmas-tuganmas manba hisoblanadi.

Shuning uchun fitoterapiya fanini yanada rivojlantirish va xalqimizni samarali, asorat bermaydigan va arzon dori vositalari bilan ta'minlash dolzarb masalalardan biri deb qaraladi.

Kasalhayvonlarga davo qilishda veterinariya amaliyotida faqat fitoterapiya bilan chegaralanib qolmasdan, balki davo qilishning boshqa mavjud usullaridan, shu jumladan sintetik va yarim sintetik dorilardan, fizioterapiya va boshqalardan foydalanish katta samara berdi. Bu kasallikning turiga, uning kechishiga, bemorni ahvoliga va boshqa-bir qator omillarga bog'liq.

Shuning uchun fitoterapiyani ma'lum davo usullaridan ajratib bo'lmaydi va bemorlarga kompleks davo qilishning usullaridan biri deb qaralishi kerak.

Ko'pgina dorivor o'simliklarning shifobaxsh ta'siri ko'p qirrali bo'lishiga qaramasdan, bir necha giyohlardan tayyorlangan yig'ma dorilar ancha samarali davo ta'sirini ko'rsatadi. Bularga misol qilib hozir tibbiyot amaliyotida keng qo'llanilayotgan marelin, kardiovalen, kafiol, urolesan, vikair preparatlarini keltirish mumkin.

Dorivor o'simliklardan turli dori shakllari (damlama, qaynatma, tindirmanastoyka, yekstraktlar, poroshoklar va boshqalar) tayyorlanadi.

Ularni tayyorlash yoki ulardan yakka xoldagi toza dori moddasini va dori preparatlarini olish uchun qo'llaniladigan o'simliklarning ma'lum qismlari yoki shu o'simliklardan birlamchi ishlash yo'li bilan olingan moddalar (yefir moyi, moy, daraxt yelimi va b.) dorivor o'simliklar mahsuloti deb yuritiladi.

Odatda ushbu mahsulotlar biologik faol moddalarni ko'p miqdorda saqlaydi. Dorivor mahsulot sifatida o'simliklarning yer ustki qismi (bargi, guli, mevasi, urug'i, po'stlog'i, kurtagi, o't o'simliklarning butun yer ustki qismi, o'ti) yoki yer ostki qismi (ildizi, ildizpoyasi, piyozi, tunganagi) bo'lishi mumkin.

O'simliklar tarkibida uchraydigan har xil birikmalar biologik faol moddalar sifatida bo'lishi mumkin. Ular quyidagilar: alkaloidlar, glikozidlar, vitaminlar, yog'lar, yog'simon moddalar, kislotalar, kumarinlar, lignanlar, oshlovchi moddalar (tanidlar), polisaxaridlar, saponinlar, flavonoidlar, yefir moylari (terpenoidlar), fitonsidlar va boshqalar. Ushbu moddalar o'simlikning o'sish-rivojlanish davrining turli vaqtida yilning fasliga qarab ko'p miqdorda to'planadi, ayni shu vaqtda ular yuqori sifatli xisoblanadi va tayyorlanishi lozim. Shunga qarab mahsulotlar dorivor o'simliklarning turli davrlarida yig'iladi. Masalan, o'simlikning yer ustki qismi (o'ti) o'simlik gullaganda, barglari gullash oldidan yoki gullaganda, kurtaklar va po'stloqlar o'simlik tanasida suyuqlik yura boshlaganda (yerta bahorda), yer ostki qismlari esa odatda o'simlik uyquga kirganda (kech kuzda) yig'iladi.

Dorivor o'simliklarni yig'ishda quyidagilarga rioya qilinishi zarur:

1. Dorivor o'simlik mahsulotlari oldindan mo'ljallangan, ruxsat yetilgan yerda va miqdorda yig'iladi.
2. Ushbu mahsulotlar qabul qilingan qoida bo'yicha quritilishi darkor.
3. Ko'p yillik dorivor o'simliklarning yer ustki qismi tayyorlanayotganda ularning ildizini qoldirish zarur.
4. Ildiz va ildizpoyani kavlab olishda ildizning bir qismi qoldirilishi shart.
5. O'simlik mahsulotini tayyorlashda yaxshi taraqqiy yetgan, gullab turgan o'simlikni (uning mevasi yetilib urug'larga sochilib ko'payishi uchun) qoldirish zarur.

Ushbu qoidalar hisobga olinsa, dorivor o'simliklarning manbai sira kamaymaydi va ular abadiy saqlanadi.

Dori vositalarining yaratilishi va amaliyotiga joriy qilinishi

Yuqorida aytilganidek, qadimdan yangi dori moddalarini olish manbai o'simliklar, jonivorlar va minerallar hisoblangan. XIX asr o'rtalarida esa, kimyo fanining taraqqiyoti tufayli dorilarni kimyoviy sintez yo'li bilan olishga erishildi.

Keyinchalik immunologiya fanining rivojlanishi va shakllanishi hisobiga shifobaxsh zardoblar, vaksinalar tayyorlash, zamburug'lardan antibiotiklar olish texnologiyalari yaratildi. 80-yillardan boshlab esa, biotexnologiya fanining rivojlanishi natijasida aralash birikmalar hamda individual toza preparatlar olish yo'lga qo'yildi.

Hozir yangi yaratilgan dori vositalariga davlat muassasalari tomonidan maxsus annotasiyalar va ruxsatnomalar tayyorlanadi. Ularni O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi qoshida 1992 yilda tashkil topgan Dori vositalari va tibbiy uskunalari sifatini nazorat qilish boshqarmasi har tomonlama ko'rib chiqadi. Dori preparatining foydali va ayniqsa zararli xususiyatlari biologik va kimyoviy tekshiruvdan o'tadi. Ushbu tekshirishlar ijobiy hal yetilsa, boshqarma tomonidan dori preparatini tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat beriladi.

Umuman yangi dori moddalarini topish, tekshirib ko'rish va ularni tibbiyot amaliyotiga joriy yetish turli fan sohalari mutaxassislarining faoliyati natijasi

bo'lib, bu jarayonda kimyo, farmakologiya va farmasiya sohalari alohida ahamiyatga molikdir.

Yangi dori vositasini ishlab chiqarishga ruxsatnoma olish o'ziga xos murakkab vazifa bo'lib, bir necha soha mutaxassislarining ko'p yillik mashaqqatli mehnati samarasi tufayli amalga oshiriladi.

Diagrammada keltirilganidek, dori moddasini, shu jumladan dorivor o'simliklarni dori preparati sifatida tibbiyot amaliyotiga joriy qilishda farmakologlar tomonidan laboratoriya jonivorlari ustida olib boradigan tekshirishlari hal qiluvchi ahamiyatga yega. Shu bilan bir qatorda bu ishda kimyogar va provizorlar, ayniqsa texnologlar, farmakognostlar, farmasevtik kimyogarlarni vazifasi alohida o'rin tutadi. Hozirgi vaqtda yangi dori vositalarini topish va ishlab chiqarishga joriy yetish uchun tayyor ilmiy nazariyalar yaratilmagan. Bunday nazariyalar kelajakda yaratiladi deb umid qilish mumkin. Dorilarni kimyoviy va fizikaviy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning farmakologik ta'sirini kimyoviy tuzilishi bilan bog'lab o'rganish asosiy vazifalardan sanaladi.

Ilmiy tadqiqot izlanishlari asosan quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi.

Empirik izlanish- kimyoviy usulda olingan biron-bir moddaning farmakologik faolligini o'rganish. Birlamchi moddaning qaysi guruhga mansubligini oddiy usullar yig'indisi majmui yordamida aniqlanadi. Ilmiy adabiyotdagi bu usul saralash skriningi deb ta'riflanadi. Maxsus farmakologik yoki farmasevtik muassasalarda ko'plab dori preparatlarini ushbu usulda ayrim farmakologik ta'sirlari bo'yicha guruhlariga to'plab o'rganiladi. Ushbu usul "yo'naltirilgan izlanishlar" usuli bo'lib, bunda preparatning o'ziga xos ahamiyatli xossalari ochilmay qolishi mumkin. O'z mohiyati jihatidan bu usul chegaralangan saralash usulidir.

Ko'proq ishlatiladigan usullardan yana biri "tuzilish modifikatsiyasi"dir. Kimyoviy laboratoriyalarda mutaxassis dori tuzilishidagi biron-bir radikalni almashtiradi (masalan, metil, yetil yoki propil bilan) yoki dori tarkibiga yangi yelementlar kiritiladi (temir, ftor, selen). Natijada dori moddasida yangi

farmakologik xususiyat namoyon bo'ladi. Ushbu usul yordamida moddaning zaharlilik darajasini kamaytirishga yoki uning tanlab ta'sir yetish xususiyatini oshishiga yerishish mumkin.

Keyinchalik sintez qilish usuli bilan farmakologik xususiyati oldindan mo'ljallangan dorilarni olishga yerishildi. Ushbu usul mavjud preparatlar guruhiga oid yangi dorilarni kashf yetishda katta imkoniyatlarni ochib beradi.

Biotexnologiya-mikroorganizmlar, o'simlik moddalari va jonivorlardan dori vositalari olishdagi asosiy yo'nalishdir. Fleming 1929 yilda yashil mog'or penicillum notatum atrof muhitga mikrobgga qarshi modda ajratishini kashf etgan. A.Flori va S.Cheyn 1942 yilda penisillinni toza holda olishga muvaffaq bo'lganlar. Shu davrdan boshlab antibiotiklar asri boshlandi.

Bundan tashqari, 80-yillar mobaynida o'simlik hujayralarini maxsus muhitda saqlab, aralash birikmalar olish usullari yaratildi, ular tabiiy o'simlik xossalarini saqlagan holda yangi qo'shimcha ijobiy xossalar namoyon yetishi aniqlandi.

Biologiya fanining rivoji natijasida kashf yetilgan "gen muhandisligi" usuli ham alohida ahamiyatga yega. Ushbu usul yordamida ayrim zararsiz mikroorganizmlar xususan ichak tayoqchasi tanasiga genlarni ko'chirib o'tkazish tufayli ma'lum oqsil tuzilishiga yega fiziologik faol moddalar olishga yerishildi. Ushbu izlanishlar natijasida 70-yillarga kelib, g'oyat zarur preparat-odam insulini olindi.

Ushbu usulning imkoniyatlari cheksiz bo'lib, inson organizmiga ham genlarni ko'chirib o'tkazish mumkinligi isbotlanadi. Bu sohada xozirgi vaqtda katta izlanishlar olib borilmoqda.

Murakkab tarkibli dori preparatlarini yaratishga ham alohida ye'tibor berilyapti, chunki bu usul yordamida dorilarning ta'sir kuchini oshirishga muvaffaq bo'linadi. Shu bilan bir vaqtda dorilarning zararli ta'sirlarini bartaraf etishga erishiladi, ularni katta dozalarda qo'llashga zarurat qolmaydi.

Murakkab tarkibli dori vositalari tayyorlashda qo'shimcha ayrim yordamchi vositalar, ularning noxush ta'sirlarini bartaraf etilishiga va tavsiya etishda qulaylik yaratishga olib kelishi mumkin.

3.XUSUSIY IZLANISHLAR

3.1.Shifobaxsh o'simliklar bilan davolash (fitoterapiya)

Insoniyat hayoti o'simliklar olami bilan uzviy bog'langan. O'simliklar olami insonni yedirib-ichiradi, kiyintiradi, havoni poklab beradi, go'zal manzaralar yaratadi. o'simliklarning serhosiyat tomonlarini sanab intihosiga yetish qiyin.

O'simliklarning eng ajoyib xislatlaridan biri — shifobaxshligidir. Odamzot qadim-qadim zamonlardan beri o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlaridan bahramand bo'lib kelmoqda. Qadim zamonlarda odamlar o'z dardlariga davo izlab, avvalo o'simliklar olamiga hamda hayvonot mahsulotlariga intilar edilar. Dastlab odam uchun o'simlik mevalari, ildiz, ildiz mevalari, shuningdek hayvon mahsulotlari oziq-ovqat vazifasini o'tagan; ilgari o'simliklarning shifobaxshligi tasodifan topilgan bo'lsa, keyinchalik ular hayotiy sinov va kuzatishlardan o'tgach, xalq tabobatida qo'llanila boshlagan.

Eramizdan II asr oldin Ebers papirusida «Tananing hamma bo'limlariga ta'sir etuvchi moddalarni tayyorlash» o'sha davr o'simliklarining shifobaxshligi to'g'risida ma'lumot berilgan. Qadimgi Misrda har xil o'simliklardan tayyorlangan xushbo'y moylar, balzamlar, aloe, bargizubning shifobaxsh ta'siri ma'lum bo'lgan.

Xitoyda jen-shen hamda bug'u shoxidan olinadigan pantlarga katta ahamiyat berilgan. Qadimgi budda tibbiyotining ajoyib rivoyatlarida shunday deyilgan— darmon izlagan tabib nigohi bilan olamga nazar solsa, dori-darmonlar olamida hayot kechirayotganimizni bilishimiz mumkin, olamda dori sifatida ishlatib bo'lmaydigan bironta moddaning o'zi yo'q, desa bo'ladi. Mashhur yunon tabibi Buqrot (eramizdan oldingi 460—377 yillar) o'zining «Korpus Xippokratikum» asarida tib ilmiga, jumladan dori-darmonlarga oid ko'p ma'lumotlar keltirgan, asarlarida dorivor o'simliklarning 236 tasi tasvirlanib, ularning xususiyatlari bayon etilgan.

Running eng mashhur tabibi va tabiat fanlari bilimdoni Galen (Jolinus hakim eramizning 130—200 yillarida yashagan) ajoyib falsafiy ibora keltirgan, o'simlik va hayvonot olamidan olingan har bir moddaning foydali tarafi bor uni ishlatish lozim hamda zararli tarafi bor uni olib tashlash lozim. Galen o'z davrida o'simliklar to'g'risida 2 ta kitob yozgan, bu kitob lotin, arab, forsiy va qadim Ovro'po tillariga tarjima qilingan.

Kadimiy hind tabibi Sushruta (VI asr o'zining olamshumul «Ayurveda» asarida 700 dan ortiq shifobaxsh o'simliklarni keltirgan, ularning ko'pchiligi hozirgi kunda ham xind tibbiyotida qo'llanib kelinmoqda (LIV—52, rumalayya tabletkalari «Ajurveda» yozuvi bilan chiqadi). Uz davrining mashhur tabiblari, shifokorlaridan Abu Ali ibn Sino, Abu Bakr Muhammad ibn Zakariya ar-Roziy, Arabmuxammad o'g'li Abdulg'ozixon, Ismoil Jurjoniy va boshqalar bemorlarni davolashda dorivor o'simliklardan keng ko'lamda foydalanganlar.

Abu Ali ibn Sino 900 xil shifobaxsh o'simliklardan dorilar tayyorlab, tabobatda qo'llagan.

Abu Rayxon Beruniyning «Saydana» nomli qomusiy kitobida o'sha davrda (XI asr) qo'llanadigan hamma shifobaxsh o'simliklar keltirilgan. Sharqda o'rta asrlarda shifobaxsh o'simliklar fani — farmakognoziya tabobat ilmini egallashda eng birinchi bosqich hisoblangan. XIX—XX asr olimlaridan A. F. Gammerman, P.S. Massagetov, S. S. Sahobiddinov, H. X. Xolmatov, X. U. Aliyevlar dorivor o'simliklarni tabobatga tatbiq etish ishlariga katta hissa qo'shganlar.

Keyingi asrlarda kimyo fanining nihoyatda taraqqiy etishi, sintez yo'li bilan yangi kimyoviy birikmalar hamda o'ta ta'sirli ximioterapevtik moddalar olinishi tufayli shifobaxsh o'simliklarni qo'llash ikkinchi darajali bo'lib qoldi. Tabobatda o'ta faol kimyoviy moddalar ko'plab qo'llanishi oqibatida «dori kasalligi» paydo bo'ldi, bunday bemorlar soni kundan-kunga ortib bordi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti keltirgan ma'lumotga ko'ra, kasalxonadagi bemorlarning 2,5—5%ini dori moddalarning nojo'ya ta'siridan kasal bo'lganlar tashkil etadi. Shuning uchun hozirgi kunda shifobaxsh o'simliklar bilan davolashga katta ehtiyoj tug'ilgan, bu borada izlanishlar olib borish shu kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qoldi.

O'zbekistonda yovvoyi holda o'sadigan va o'stiriladigan o'simliklar soni qariyb 4150 taga yetadi, ulardan 577 tasi shifobaxsh o'simliklar. O'simliklar kimyoviy jihatdan juda murakkab xisoblanadi, ularning tarkibida 21 ta element mavjud, bu elementlardan 16 tasi hamma o'simliklarda, qolgan 5 tasi ba'zi birlarida mavjud. O'simliklarda 29 ta organik molekulalar (glyukoza, riboza, moylar, fosfatidlar, 20 ta aminokislota, 5 ta nukleozidlar, son-sanoqsiz har xil murakkab birikmalar bor.

Usimliklar organizmida alohida biologik faol moddalar alkaloidlar, yurak glikozidlari, antraglikozidlar, saponinlar, flavonoidlar, xromonlar, kumarinlar, terpenlar, moylar, vitaminlar, fitonsidlar, yelimlar, oshlovchi, shilliq va boshqa moddalar mavjud. Biologik faol moddalar o'simliklarning turli qismlarida uchraydi, ba'zi qismlarida ko'p, ba'zilarida esa kam bo'ladi yoki butunlay bo'lmasligi ham mumkin. Biologik faol moddalar o'simliklarning bir xil turlarida—barglarida (digitalis bargi), ikkinchilarida—gulida (moychechak guli), uchinchilarida—mevasida (chernika mevasi), to'rtinchilarida—ildizi, ildizpoyasida (valeriana ildizi va iddizpoyasi), beshinchilarida— po'stlog'ida (eman po'stlog'i) bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham o'simliklarning asosan biologik faol moddalari ko'p bo'lgan qismidan dorivor mahsulot yig'ib olinadi.

Biologik faol moddalar o'simlik qismlarida bir vaqtning o'zida to'planmaydi, shuning uchun dorivor mahsulotlar turli vaqtlarda yig'ib olinadi. Agar dorivor

mahsulot o'z vaqtida yig'ib olinmasa, ularning tarkibida biofaol moddalar kamroq bo'lishi, ularning shifobaxshlik qiymati kamayishi mumkin.

Usimliklarning yer ostki qismlari (ildiz, ildizpoya, tug'anak, piyozboshi) odatda o'simlik uyquga kirgan davrida — kech kuzda yoki o'simlik uyg'onmasdan oldin — erta bahorda tayyorlanadi.

O'simliklarning yer ustki qismi (poyasi, bargi va gullari ara-lashmasi) o'simlik gullaganda, poyaning eng tagidagi barg oldidan o'rib olinadi, poyaning bargsiz qismiga tegilmaydi. Barglar odatda o'simlik gullashi oldidan yoki gullaganda ohistalik bilan olinadi. Kurtaklar, po'stloqlar erta bahorda olinadi. Gullar o'simlik qiyg'os gullaganda yig'iladi. O'simlik mevalari to'la yetilganda yig'ib olinadi. Tayyorlangan mahsulotlar boshqa o'simlik aralashmalaridan, loy, tuproq, qumlardan tozalangandan so'ng tezda quritishga kirishiladi. O'simliklarning yer ustki qismi tabiiy sharoitda ochiq havoda soya yerda, ataylab qurilgan joylarda quritiladi. Dorivor mahsulotlar sakdanadigan bino, xonalar toza, quruq va shamol o'tib turadigan bo'lishi lozim. O'simlik mahsulotlaridan damlamalar (yumshoq qismlaridan), qaynatmayaar (qattiq qismlaridan) dorixonada va uy sharoitida tayyorlanadi. Dori zavodlarida o'simliklardan nastoykalar, suyuq va quyuq ekstraktlar tayyorlanadi. Shu bilan birga o'simliklardan kimyoviy yo'l bilan alohida moddalar — alkaloidlar, glikozidlar, kumarinlar va boshqalar olinadi, ular ham asosan tibbiyotda qo'llanadi. Shu bilan birga tabiiy alkaloidlar, glikozidlar asosida sintez yo'li bilan yangi yarim sintetik moddalar ham olinadi.

Dorivor o'simliklar bilan davolash, fitoterapiyaning afzalligi quyidagilardan iborat:

1. Shifobaxsh o'simliklar ko'p asrlar mobaynida sinovlardan o'tib kelayotgan omil hisoblanadi, organizmga fiziologik ta'sir ko'rsatadi, chunki tabiatdagi uzluksiz shakllanish tufayli o'simliklar va odam organizmi hujayralarining tuzilishi bir-biriga juda yaqin. Sintez yo'li bilan olingan kimyoviy moddalar esa odam organizmi uchun yot hisoblanadi, ular o'ta faol bo'lib, organizmning murakkab molekulalari tuzilishini buzishi, ba'zan yanada faolroq, xujayralar uchun zaharli yangi birikmalar hosil qilishi mumkin.

2. Shifobaxsh o'simliklarning davolash doirasi keng, chunki ular kimyoviy jihatdan juda boy, ularning tarkibida glikozidlar, alkaloidlar, fermentlar, vitaminlar, bioelementlar va boshqa moddalar mavjud. O'simliklar ta'siri sekin boshlanadi, ular keskin biokimyoviy o'zgarishlarga olib kelmaydi, shu jihatidan ayniqsa surunkali kasalliklarni davolashda katta ahamiyatga ega.

3. Ko'pchilik bemorlar, ayniqsa qariyalar bir vaqtning o'zida bir necha kasallik bilan og'rishi mumkin, bitta o'simlik esa bir necha xil shifobaxsh xususiyatlarga ega bo'ladi, shuning uchun o'simliklar ana shunday bemorlarni davolashda qo'l keladi.

4. Fitoterapiyaning afzalligi — kasalliklarning oldini olish uchun qo'llanishidir. Masalan, bolalarga vitaminli choylar, kattalarga eleuterokokk, jenshen, ya'ni adaptogenlar qo'llanganda respirator kasalliklar 2— 3 barobar kamaygani qayd qilingan.

5. Shifobaxsh o'simliklar kam zaharli, shu tufayli ularni asosiy dori moddalar sifatida kasallikning boshlang'ich davrida qo'llash mumkin. Kasallik avjiga chiqqanda shifobaxsh o'simliklar organizmning himoya kuchlarini oshirish, qo'llanayotgan kimyoviy moddalarning nojo'ya ta'sirlarini kamaytirish uchun qo'llaniladi. Sog'ayish davrida shifobaxsh o'simliklar olingan davoni qo'llab-quvvatlash uchun qo'llanadi.

Hozirgi kunda shifobaxsh o'simliklarning ta'siri aniqbo'lsa ham, ularni ta'sir mexanizmi, ayniqsa molekulyar bosqichdagi ta'siri oxirigacha aniqlanmagan, shuning uchun ular ta'sir mexanizmi bo'yicha emas, asosan davolash ta'siri bo'yicha tasniflanadi. Dorivor o'simliklarni davolash ta'siri bo'yicha ham tasniflash qiyin, chunki bitta o'simlik kamida 3-4 xil ta'sirga ega, shuning uchun ular **asosiy** ta'siri bo'yicha 7 guruhga bo'linadi:

1. Markaziy nerv sistemasiga ta'sir etuvchi o'simliklar.
2. Yurak va qon tomir sistemasiga ta'sir etuvchi o'simliklar.
3. Siydik haydovchi va shishlarga qarshi ta'sir etuvchi o'simliklar.
4. Yallig'lanishga, yaralarga qarshi ta'sir etuvchi o'simliklar.
5. Me'da-ichak faoliyatiga ta'sir etuvchi o'simliklar.

6. Balg'am ko'chirish, qayt qildirish xususiyati bor o'simliklar.

7. Qon ketishini to'xtatuvchi, bachadon mushaklari tonusini oshiruvchi o'simliklar.

Markaziy nerv sistemasiga ta'sir etuvchi o'simliklar nerv sistemasini rag'batlantiruvchi va tinchlantiruvchilarga bo'linadi.

Markaziy nerv sistemasini rag'batlantiruvchi o'simliklar: manchjuriya araliyasi, jenshen, exinopanaks, moxsarsimon levzey, xitoy shizandrasi, eleuterokokk, qizilcha o'simligi.

Keltirilgan o'simliklarning hammasi markaziy nerv sistemasiga qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatadi. Uxlatuvchi moddalar (asosan barbituratlar) ta'sirini kamaytiradi, asabni rag'batlantiruvchi moddalar (kofein, kamfora, fenamin) ta'sirini kuchaytiradi. Akliy va jismoniy mehnat qobiliyatini oshiradi, charchoqni yozadi, stresslarga qarshi ta'sir ko'rsatadi, organizm chidamliligini, noqulay sharoitlarga moslashishini (ayniqsa jen-shen, eleuterokokk) yaxshilaydi. Ba'zi o'simliklar (kuchala, qizilcha) qon bosimini ko'taradi. Boshqa o'simliklar (eleuterokokk, jen-shen) esa miyada qon aylanishini, jinsiy qobiliyatni yaxshilaydi. Bu o'simliklar nerv sistemi tonusini oshirish uchun astenik, asteno-nevrotik xolatlarni, akliy va jismoniy toliqishni, arterial gipotoniyalarni davolashda qo'llanadi.

Markaziy nerv sistemasini tinchlantiruvchi o'simliklar: dorivor valeriana, arslonquyruqo'ti. Dorivor valeriana o'simligi bosh miya po'stlog'ida tormozlanish jarayonlarini oshiradi, shartli reflekslarni susaytiradi. Valeriana damlama, nastoyka, ekstrakt shaklida nevrozlarda, bolalar nevrozida, uyqusizlikda, yurak nevrozida qo'llanadi. Valeriana valokardin, validol, korvalol, valosedan moddalar tarkibiga kiradi.

Efferent innervasiyaga ta'sir etuvchi dorivor o'simliklar: bangidevona, mingdevona, belladonna, pilokarpus, senesio, yalpiz, galantus, zaharli fizostigma. Kalla o'simligi asosan spazmolitik, miotrop ta'sir etadi, o'simlikdan bir necha furokumarinlar olingan, ulardan eng faoli kellin hisoblanadi, modda spazmolitik ta'sir qiladi. **Bangidevona, mingdevona, senesio** o'simliklarining M-xolinolitik ta'siri bor, ulardan olingan atropin, skopolamin, platifillinga o'xshab

parasimpatik nervlar oxirida joylashgan M-xolinoreseptorlarni falajlaydi, shu alkaloidlarga o'xshash ta'sir ko'rsatadi. Usimliklardan **belladonnaning suyuq** vea **quruq ekstrakti** spazmolitik dori sifatida me'da-ichak spazmida qo'llanadi.

Yalpiz barglari tinchlantiruvchi, spazmolitik, safro haydovchi, antiseptik, og'riq qoldiruvchi xususiyatlarga ega. Yalpiz tarkibidagi mentol asosiy ta'sir etuvchi omil hisoblanadi, reflektor yo'l bilan yurak toj tomirlarini kengaytiradi. Mahalliy ta'siri tufayli yalpiz barglari me'da-ichak bezlarini, o't-safro ajralishini oshiradi, ichakdagi hamma patogen mikroorganizmlarga qarshi ta'sir etadi. Yalpiz barglari me'da-ichak spazmida, qabziyatda, ko'ngil aynaganda, qusishni qoldirish uchun qo'llanadi. Mentol stenokardiya kasalligining yengil xurujlarida, miya tomirlari qisqarganda qo'llanadi. Kichik yoshli bolalarda shilliq pardalarni mentol bilan artish man qilinadi, chunki reflektor yo'l bilan nafas olishni susaytirishi, hatto to'xtatishi ham mumkin. Yalpiz barglari damlama, nastoyka, yalpiz moyi sifatida, mentol **pektussin** tabletkalar (yuqori nafas yo'llari shamollaganda qo'llaniladi), **menovazin suyuqligi** (nevralgiya, mialgiya, artralgiyada qo'llanadi), **validol** (stenokardiya, nevrozlarda), **efkamon malhami** tarkibida (artrit, miozit, nevralgiyalarda) qo'llanadi.

Pilokarpus o'simligidan pilokarpin alkaloidi, galantusdan **galantamin** alkaloidi olingan. O'simlikning o'zi qo'llanmaydi, ulardan olingan pilokarpin glaukoma, galantamin xolinesterazaga qarshi modda sifatida bolalar falaji — poliomyelit asoratlarini davolashda qo'llanadi.

Yurak ea qon tomirlar sistemasiga ta'sir etuvchi dorivor o'simliklar. Bularga tarkibida yurak glikozidlari saqlaydigan o'simliklar — **bahorgi adonis, chitrangi, marvaridgul, kendir, angishvona**, o'simliklarining bir necha turlari, **strofant** kiradi. Bu o'simliklarning damlama va nastoykalari, adonizid va yurak glikozidlari — erizimin, digitoksin, digoksin, strofantin, konvallyatoksin yurak-qon tomir yetishmovchiligida qo'llanadi.

	
Dorivorvaleriana	Arslonquyru
	q

			
Jenshen	Exinopaks	Shizandra mevalari	Saflarsimon levzey

Qon bosimini tushirish uchun do'lananing xar xil turlari, **rauvolfiya** o'simligi qo'llanadi. Do'lana ekstrakti va spirtli nastoykasi yurak tonusini oshiradi, ayniqsa toliqqanda, tarkibida flavonoidlar bo'lgani tufayli gipotenziv, aritmiyaga, aterosklerozga qarshi, sedativ ta'sir ko'rsatadi. **Do'lana ekstrakti, nastoykasi** gipertoniya, angionevroz, ateroskleroz, aritmiya, klimakterik nevrozlarda qo'llanadi, ular kam zaharli moddalardir.

Rauvolfiya o'simligi gipotenziv, markaziy nerv sistemasini tinchlantiruvchi — neyroleptik, simpatolitik ta'sirga ega. O'simlikning o'zi qo'llanmaydi, undan olingan alkaloid rezerpin, **raunatin** gipertoniya kasalligini davolashda, alkaloid aymalin aritmiyaga qarshi modda sifatida keng qo'llanadi.

Dioskoreya o'simligi gipolipidemik, antisklerotik ta'sirga ega. O'simlikning o'zi qo'llanmaydi, dioskoreyadan olingan steroid glikozid **polisponin** aterosklerozga qarshi modda sifatida qo'llanadi. Bu modda qonda xolesterinni, trigliseridlar miqdorini kamaytiradi, lesitin — xolesterin koeffitsiyentini oshiradi, shu tufayli xolesterin qonda kolloid holatda ushlanib, qon tomirlar devoriga cho'kishiga to'sqinlik qiladi. Polisponin gipolipidemik, aterosklerozga qarshi

ta'siri bilan yurakka, buyrak faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, asosan aterosklerozni davolashda qo'llanadi.

					
Mingdevona	Bangidevona	Sariqboshi	Pilokarpus	Yalpiz	Boychechak

Siydik haydovchi va shishlarga qarshi tasir etadigan o'simliklar: oq qayin bargi, kurtagi, brusnika bargi, dorivor qashqarbeda, oddiy archa, toloknyanka, ittikanak, qirqbo'g'im.

Bu o'simliklar o'rtasida toloknyanka ko'proq, qo'llaniladi, o'simlik tarkibidagi glikozid-gidroxinon to'qimalar yo'llarini ta'sirlab, siydik ajralishini ko'paytiradi, yallig'lanishga qarshi ta'sir etadi. Toloknyanka tarkibidagi arbutin glikozidi mikroorganizmlarga ham qarshi ta'sir ko'rsatadi. O'simlik bargidan damlama va qaynatmalar tayyorlanadi, qovuq, siydik yo'llari kasalliklari tufayli yuzaga kelgan shishlarni davolashda qo'llanadi.

Qirqbo'g'im o'ti siydik haydovchi, yallig'lanishga qarshi, qon ketishini to'xtatish xususiyatiga ega, o'simlikning zaharsizlantirish, organizmdan qo'rg'oshin tuzlarini chiqarish xususiyati ham bor. Qirqbo'g'im yurak-qon tomirlar yetishmovchiligida hosil bo'lgan shishlarni yo'qotish uchun, qon to'xtatish xususiyati tufayli bachadon, to'g'ri ichakdan (gemorroidal) qon ketishlarda qo'llanadi. Arap ko'pchilik siydik haydovchi o'simliklar takror qo'llanish natijasida ta'siri kamayib borsa, qirqbo'g'im uzoq vaqt qo'llanilsa ham ta'siri kamaymasdan, saqlanib qoladi. Buyrak to'qimalarini ta'sirlaydi, shu tufayli buyrak kasalliklarida, nefrit va nefrozlarda qo'llash man etiladi.

Ittikanakning siydik haydovchi, terlatuvchi, me'da-ichak faoliyatini va moddalar almashinuvini normallashtirish xususiyatlari ham bor. Ittikanak tarkibida askorbinat kislota va marganes ionlari borligi tufayli shifobaxsh ta'sir etadi. Ma'lumki, marganes ionlari qon tanachalari hosil bo'lishiga, qon quyulishiga,

ichki sekresiya bezlari faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Moddalar almashinuviga ta'siri bo'lgani tufayli neyrodermitlarda, psoriazni davolashda qo'llanadi. Ittikanak bolalar amaliyotida keng qo'llanadigan o'simlik. Chaqaloqlarga ittikanak damlamasidan vanna qilinadi. Itgikanak o'tni ehtiyotkorlik bilan qo'llash kerak.

Yallig'lanishga, yaralarga qarshi ta'sir etadigan o'simliklar: aloe, andiz, tog'rayhon, dalachoy, kalanxoe, tirnoqgul, chakanda, zubtutum, moychechak, mavrak, na'matak va boshqalardir. Bulardan tirnoqgulning yallig'lanishga qarshi xususiyati bilan birga yaralarni bitiruvchi, spazmolitik, o't (safro) haydovchi va mikroblarga qarshi ta'sir qiladi. **Tirnoqgul** o'simligini ichga va sirtga qo'llash mumkin. Bolalarda gingivit, paradontoz kasalliklarida og'izni chayish uchun, tonzillit, anginalarni davolash uchun qo'llanadi. Bu o'simlik ginekologiyada bachadon shamollaganda, eroziyalar, trixomonadali kolpitlar, proktit, paraproktitlarni davolashda qo'llanadi. Tirnoqgul yengil sedativ ta'sir etadi, ba'zi yurak kasalliklarida, qon bosimi oshganda, me'da-ichak kasalligida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tirnoqgul gullarida karotinoid, flavonoidlar, askorbinat kislota va boshqa organik kislotalar bo'lgani uchun jigarning metabolik faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, safroning tarkibi yaxshilanadi, biliburin va xolesterin mikdori kamayadi. Tirnoqgul moychechak o'simligi bilan birga qo'llanganda uning ta'siri yanada samarali bo'ladi. Tirnoqgulning damlama va nastoykasi qo'llanadi.

				
Do'lana	Rauvolfia	Baxorgi adonis	Strofant	Marvarid gul

Chakanda o'simligining mevalari vitaminlarga, mikrounsurlarga, kumarin, flavonoidlarga juda boy. Chakanda moyi qo'llanadi, bu modda yaralar, ayniqsa

kuygan yaralarning bitishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chakanda moyining mikroblarga qarshi xususiyati ham bor. Eksperimentlarda chakanda moyining lipidlar almashinuviga, jigar, me'da-ichak faoliyatiga ijobiy ta'siri aniqlangan. Chakanda moyi kuyganda, trofik yaralarda, bachadon eroziyalarida, ko'z kuyganda, shox parda yarasida, oshqozon yarasini davolashda qo'llanadi.

Moychechak gullari fiziologik faol moddalarga juda boy (efir moylari, flavonoidlar, polisaxarid, vitaminlar, kumarinlar va boshqalar), ularning spazmolitik, antiseptik, yallig'lanishga qarshi, sedativ, o't (safro) haydash, regenerasiyani oshirish xususiyatlari bor. M-xolinolitik xususiyati ham bor, shuning uchun spazmolitik ta'sir etadi. Moychechak gullari damlamasi juda ko'p kasalliklarda — stomatit, gingivitlarda, tonsillit, angina, o'tkir va surunkali gastrit, oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yarasida, kolit, enterokolitlarda, safro yo'llari spazmida qo'llanadi. Moychechak gullarining qaynatmasi, moychechakdan tayyorlangan romazulon suyukligi qo'llanadi.

Yuqorida keltirilgan boshqa o'simliklar ham yallig'lanishlarda, yaralarni davolashda, va boshqalarda qo'llanadi.

Me'da-ichak faoliyatiga ta'sir etuvchi o'simliklar:bo'znoh, eman po'stlog'i, tog'jumrut, makkajo'xori, momaqaymoq, achchiq ermon, rovoch, zira, otquloq o'simliklarining bir xili asosan ishtahani ochish (ermon), boshqa xillari ichak peristalkasini oshirish, ba'zi birlari esa asosan o't (safro) haydash xususiyatlariga ega.

Bo'znoh gullari o't (safro) haydaydi, o't kislotalarini kamaytiradi, bilirubinlar hajmini, xolatoxolesterin koeffitsiyentini, o't pufagi tonusini oshiradi. Ichakka, o't pufagiga, qon tomirlarining silliq mushaklariga spazmolitik ta'sir ko'rsatadi, oshqozon, oshqozon osti bezi sekresiyasini oshiradi. Bo'znoh moddalari kam zaharli, davomli qo'llanganda jigar faoliyatini o'zgartirishi mumkin. Bo'znoh qaynatmalari, ekstrakti, undan olingan moddalar jigar va o't (safro) yo'llari kasalliklarida — xolesistit, gepatitlarda qo'llanadi. Bo'znoh o'simligidan **flamin** moddasi olingan, flamin flavonoidlar yig'indisidan iborat, surunkali xolesistit, gepatoxolesistitlarni davolash uchun qo'llanadi.

Rovoch tarkibida antraglikozid, tanoglikozid, xrizofan kislota, emodin, pigmentlar mavjud, bu o'simlik antraglikozidlar tufayli ichak peristaltikasini oshiradi, surgi modda sifatida qo'llanadi, ta'siri 8-10 soatlardan keyin boshlanadi. Tanoglikozidlar tufayli burishtiruvchi, ich ketishga qarshi, antiseptik ta'sir ko'rsatadi. Rovoch o'simligi surunkali qabziyatda, ichak atoniyasida, asosan qariyalar va bolalarni davolashda qo'llanadi. Tabletkalarda ishlab chiqariladi, bolalar amaliyotida rovoch sharbati qo'llanadi. Rovoch kichik miqdorlarda ich ketishda ham qo'llanishi mumkin, o'tkir appendisit, xolesistit, homiladorlikda qo'llash man etiladi.

Balg'am ko'chirish, qustirish xususiyati bor o'simliklar: arpabodiyon, ipekakuana, oqqaldirmok (ko'ka), bahorgi navro'zgul, chuchukmiya, afsonak, gulhayri, dorivor ukrop va boshqalar.

Arpabodiyon o'simligining tarkibida ko'p miqdorda efir moylari mavjud, yallig'lanishga qarshi, spazmolitik, balg'am ko'chiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Arpabodiyonning efir moylari me'da-ichakdan so'rilib, oshqozon shirasini oshiradi, bronx bezlari orqali chiqib, ularni ta'sirlaydi, shilliq ajralishi yaxshilanadi, nafas yo'llari mikroflorasiga bakterisid ta'sir ko'rsatadi. Arpabodiyonning efir moyi bronxlar orqali anetol modda ishlab chiqarib, nafasni reflektor yo'l orqali qo'zg'atadi, nafas yo'llari faolligini oshiradi, balg'amni suyultirib, ko'chishini osonlashtiradi.

Arpabodiyon ayniqsa bolalar amaliyotida nafas a'zolari kasalliklarida — bronxit, bronxopnevmoniya, laringit, traxeit, ko'kyo'tal kasalliklarida juda keng qo'llanadi. Arpabodiyon damlamasi, moyi, novshadil tomchilari qo'llanadi. Damlamasini me'da-ichak kasalliklarida — oshqozon, ichak spazmida, oshqozon, jigar, oshqozon osti bezining sekresiyasi kamayganda qo'llanish mumkin.

Chuchukmiya ildizidagi glisirizin traxeya, bronxlar epiteliysining tukchalarini qo'zg'atib, yuqori nafas yo'llari shillig'ining sekretor faoliyatini oshiradi. Chuchukmiya flavonoid birikmalaridan iborat bo'lgani tufayli silliq mushaklarga spazmolitik ta'sir ko'rsatadi. Ildizi yallig'lanishga qarshi ta'sir etadi. Chuchukmiyadagi glisirizindan glisirizin kislota hosil bo'ladi, glisirizin kislota

kortikosteroidlarga o'xshab ta'sir ko'rsatadi. O'simlikdan **glisiram** modda olingan, modda yallig'lanishga qarshi ta'sir etadi, uning yallig'lanishga qarshi mexanizmida buyrak usti bezi ishtirok etadi. Glisiram natriy va kaliy ionlarining o'zaro nisbatiga ta'sir ko'rsatadi, moddaning allergiyaga qarshi ta'siri ham bor. O'simlik damlamasi, ekstrakti, sharbat, eliksiri (ko'krak eliksiri) yuqori nafas yo'llari kasalliklarida balg'am ko'chirish, yo'talni yumshatish, o'rab oluvchi sifatida qo'llanadi. Bu o'simlik oshqozon, o'n ikki barmoq ichak yarasi, me'da-ichakning surunkali yallig'lanishida, ayniqsa oshqozon shirasi kislotaliligi oshganda qo'llanadi. Yordamchi modda sifatida chuchukmiya o'simligining moddalari buyrak usti bezi yetishmovchiligida — addisonizm holatlarida qo'llanadi. Glisiram bronxial astmani, ayniqsa bolalarni davolashda, allergik kasalliklarda qo'llanadi. O'simlik va undan olingan glisiram kam zaharli modda.

Yuqori nafas yo'llari kasalliklarida bir nechta o'simliklar birga yig'ma sifatida qo'llansa, bir-birining ta'sirini oshiradi. Masalan:

Arpabodiyon mevasi—20,0

Gulxayri ildizi— 40,0

Chuchukmiya ildizi—40,0

Damlama (1 osh qoshig'i 1 stakan qaynoq suvda) tayyorlanib, xar 3 soatda yarim stakandan qo'llanadi.

Gulhayri ildizi—20,0

Chuchukmiya ildizi—20,0

Arpabodiyon mevasi—20,0

Mavrak bargi—20,0

Qarag'ay kurtagi—20,0 Damlama tayyorlanib, 1/4 stakandan kuniga 3-4 marta qo'llanadi.



Brusnika	Archagul	Dala qirqbug'imi	Ittikanak
----------	----------	---------------------	-----------

Qon ketishini to'xtatuvchi, bachadon mushaklari tonusini oshiruvchi o'simliklar: **suvqalampir, bodrezak, chayono't, jag'-jag' shoxkuya** va boshqalar.

Chayono't o'simligining bargi tarkibida oshlovchi, oqsil moddalari, chumoli kislota, vitamin K, askorbinat, pantotenat kislotalar, karotinoidlar, xlorofill, sitosterin, temir tuzlari mavjud. Ushbu moddalar tufayli chayono't lipidlar almashinuvini normallashtiradi, eritropoezni rag'batlantiradi. Tarkibida vitamin K bo'lgani tufayli chayono't gemostatik ta'sirga ega, vitamin K esa qonni quyultiradigan asosiy omillardan biridir, jigarda protrombin hosil bo'lishida ishtirok etadi. Gemostatik ta'sir bilan birga chayono't qon tomirlarini toraytiradi, yallig'lanishga qarshi ta'sir etadi, o't (safro) haydaydi, me'da-ichak shilliq qavatining regenerasiyasini, moddalar almashinuvini, bachadon, me'da-ichak tonusini oshiradi. Chayono't tanlab bachadon mushaklarining qisqaruvchanligini oshiradi, damlamasi, ekstrakti o'pka, buyrak, bachadon, ichakdan qon ketishni to'xtatish uchun qo'llanadi. Bachadon qisqarishini oshirish, qon ketishini kamaytirish uchun chayono't o'simligi homila tug'ilgandan keyin qo'llanadi. Chayono't ateroskleroz, temir yetishmovchiligi bilan bog'liq anemiyalarda, xolesistit, oshqozon, o'n ikki barmoq ichak yaralarini davolashda qo'llanadi. Chayono't bargining damlamasi mahalliy trofik yaralarni, dermatitlarni, kuygan yaralarni davolashda qo'llanadi. Chayono't bargi vitaminli, oshqozondan qon ketishini to'xtatuvchi yig'malar tarkibiga kiradi.



Daraxtsimon aloy	Moychechak	Chuchukmiya	qoncho'p
-----------------------------	-------------------	--------------------	-----------------

			
Dalachoy	Katta bargizub	Rovoch	Achchiqshuvoq

						
Ipekuann a	Chuchukmi ya	Arpabodiyo n	Tog'rayxo n	Ukrop	Gulhayri	Ko'ka

		
Gazanda (chayonut)	Jag'	Shoxkuya

3.2.Fitoichimliklarni tayyorlash texnologiyasi.

Suvli ajratmalar (damlama va qaynatmalar) - suyuq dori turlariga kirib, dorivor o'simliklardan olinadi. Damlama va qaynatmalar tayyorlashda tegishli me'yoriy-tahlil hujjatlari talablariga javob beradigan dorivor o'simliklar ishlatiladi. Dorivor o'simlik va suvni nisbati ko'rsatilmagan bo'lsa, 1:10 ga nisbatda tayyorlanadi. Demak 100 ml suvli ajratma olish uchun 10 gr dorivor o'simlikka 100 ml qaynatilgan suv quyiladi.

Ma'lumki dorivor o'simlik suvli ajratma tayyorlangandan so'ng o'zida bir qancha miqdordagi suvni ushlab qoladi. Har qancha siqilsa ham bu suvni siqib olish imkoniyati bo'lmaydi. Shu sababli tayyorlangan suvli ajratma, o'simlik shimib qolgan suyuqlik sababli, belgilangan miqdordan kam bo'ladi. Suvli ajratma sifatli va hajmi belgilangan miqdorda bo'lishini ta'minlash uchun suvli ajratmaga solinadigan suv belgilangandan ko'proq olinadi. Bu miqdor xom ashyoni gistologik tuzilishiga qarab belgilanadi. Masalan, ildiz va ildizpoyalar uchun 1,5 ml/gr bo'lib, 10 gr. ildiz va ildizpoyadan tayyorlanadigan suvli ajratma uchun 115 ml suv olinadi. Urug'lar uchun 3,0ml/gr bo'lib, 10 gr. urug'dan tayyorlanadigan suvli ajratma uchun 130 ml suv olish kerak. Agar xom ashyo po'stloq, dorivor o'simlikni yer ustki qismi (o't) yoki gullar bo'lsa, unda 2,0ml/gr bo'lib, 10 gr. xom ashyodan tayyorlanadigan suvli ajratma uchun 120 ml suv olinadi.

Fitoichimliklarni tayyorlash.

Fitoichimlik tayyorlash uchun maydalangan va kerakli miqdorda tortib olingan xom ashyo yoki kerakli miqdordagi filtr-paketlar olinib, xom ashyo miqdoriga mos, qopqog'i jips berkitiladigan sirli idishga solinadi va ustiga xona haroratidagi qaynatilgan suv quyiladi. Suv qaynab chiqgach (dorivor o'simlikni yer ustki qismi, o'tlari, barglari, gullari va sh.k.) yana 15 daqiqa qaynatilib, 45 daqiqa sovutiladi. Qaynatish va sovutish muddatlarini qisqartirish mumkin emas, chunki sovutish jarayonida ham ekstrasiya ketadi

Ildiz va ildizpoyalar, po'stloqlar, urug'lar va shunga o'xshashlar 30 daqiqa qaynatilib, so'ng 10 daqiqa sovutiladi. Suvli ajratmani sovutish muddati o'tgandan so'ng ikki qavat dokadan suziladi va siqiladi.

Agar suvli ajratma 1-3 litr miqdorida tayyorlansa, unda qaynatish vaqti 10 daqiqaga uzaytiriladi va barglar, gullar, dorivor o'simlikni yer ustki qismlari uchun 25 daqiqa, ildiz va ildizpoya, po'stloq va shu kabilar uchun 40 daqiqa deb belgilanadi.

Suvli ajratmalarni damlash usuli bilan ham tayyorlash mumkin. Buning uchun tegishli miqdordagi xom ashyo (filtr paket) chinni idishga (katta choynak) solinadi va ustiga kerakli miqdordagi qaynab turgan suv quyiladi hamda ma'lum vaqtga ustini sochiq yoki biror boshqa narsa bilan o'ragan holda qoldiriladi. So'ngra ikki qavat doka orqali suzib, siqib iste'mol uchun tayyorlanadi. Bu usulda termosdan ham foydalanish mumkin. Termosga kerakli xom ashyo (filtr-paket) va qaynab turgan suv quyilib, bir soatga qoldiriladi, so'ng ikki qavatli dokadan suzib siqiladi.

3.3.Fitonsidlar va ularni saqlash hamda qo'llash muddatlari.

Piyozning shifobaxsh xususiyatlari bundan taxminan to'rt ming yil avval Sharq xalqlariga ma'lum edi. Ko'hna Yunon, Rum, Qadimiy Misr xalqlari piyozga bo'lgan chuqur hurmat-ehtiromlarini bo'yniga shoda qilib osib yurish bilan ifoda etganlar. Ma'lumotlarda keltirilishicha, piyoz har qanday xavfli va tasodifiy kasalliklardan muhofaza etuvchi «sehrgar» deb e'tiqod qilinarkan. Ruslarning qadimda yozilgan «Shifobaxsh giyohlar» kitobida piyoz haqida quyidagi so'zlarni o'qiymiz: «Mabodo taqdir taqozosi bilan yuqumli kasalliklar yurtigingizga yopirilsa, uy xonalariga bosh piyozlarni osib qo'ying. Shunda dargohingizga kasofatli kasallik kira olmaydi, xonangizning havosi pokiza bo'ladi».

Piyozda mavjud bo'lgan fitonsidlar bo'g'ma va sil kasalligi tayoqchalarining kushandasi sifatida ta'sir ko'rsatadi. Shu tufayli ham avlod-ajdodlarimizning sevimli oziq-ovqat masallig'idan biri piyoz bo'lib qolgan. N.Z.Umnikovning ma'lumotiga ko'ra, 1805 yilda mamlakatga tarqalgan qorin tifi epidemiyasida ming-minglab kishilar qirilib ketgan. Biroq oziq-ovqat tarkibidan sira piyoz arimagan kishilar bu xavfli kasallikka chalinmaganlar.

Piyozi tarkibida efir moyi, vitamin S, V, V2, V qandlar, fitin, azotli birikmalar, oz miqdorda yod, fitonsidlar, flavonoidlar va boshqa moddalar bor. Bargi tarkibida esa vitamin S, v2, karotin, efir moyi, qandlar, fitonsidlar hamda organik kislotalar bor.

Abu Ali ibn Sino piyozi sariq kasalligiga davo qilgan hamda ishtaha ochish uchun qo'llagan.

Piyozi shirasi bilan yiringli yaralarni, quloqdan yiring oqishini, angina va ko'zga oq tushishini davolagan. Bulardan tashqari piyozi shirasini bosh og'riqni qoldiruvchi, yumshoq ich suruvchi va ayollarda hayz to'xtaganda hayoz keltiruvchi dori sifatida ishlatgan.

Xalq tabobatida piyozi shifobaxsh xususiyatlaridan siydik haydovchi dori sifatida, turli yara, chipqon, singa, ichakning qattiq og'rishi, kolit, ateroskleroz, gipertoniya, avitaminoz kasalliklarini, manqa, xo'ppoz, tumov, sizlog'ich, hatto yumaloq gijjani tushirishda ham ishlatiladi. Piyozi spirtidagi nastoykasini ichak, ateroskleroz, gipertoniya kasalliklariga, piyozi asal va olma bilan aralashtirib tomoq shamollashi, yo'talga davo qilinadi.

Piyozi kishi organizmidagi qand miqdorini kamaytirish xususiyatiga ham ega. Shu tufayli piyozi ko'proq solingan suyuq ovqatlar qand kasalligi bilan og'rikan bemorlarga tavsiya etiladi. Ko'k piyozi yurak mushaklarining yaxshi ishlashini ta'minlaydi, tanadagi ortiqcha suyuqlikni chiqarib yuborishda ahamiyati katta hisoblangan kaliy va karotin moddalariga boy. Tish kasalliklarining ham oldini olishda piyozi foydasi katta.

Ilmiy tibbiyotda piyozi o'simligining dorivor vositalari: nastoyka (allilchen), allilgliser (piyozi bosh ekstrakti bilan gliserin aralashmasi), ichak atoniyasi, kolit, ateroskleroz, gipertoniyaning ba'zi turlari, avitaminoz (singa va boshqa kasalliklar)ni davolash uchun ishlatiladi. Bu vositalar yana tumovda (rinit) burunning shilliq qavatlariga surilib, ginekologiya va trixomonadali koltpitni davolashda ham qo'llaniladi.

Foydali maslahatlar:

2. Bir stakan piyoz sharbati 1 stakan asal bilan aralashtiriladi. Shu doridan kuniga uch mahal ovqatdan bir soat oldin yoki ovqatdan 2-3 soat keyin 2 oy davomida bir choy yoki osh qoshiqda miya skleroziga davo sifatida iste'mol qilinadi. Ikki hafta tanaffus qilib, yana 2 oy yeyish tavsiya qilinadi.

3. Yumaloq gijja (ostrisa)dan xoli bo'lish uchun sarxil piyozdan 15-20 grammdan kuniga iste'mol qilinib, 7-10 kun davomida foydalaniladi.

4. Piyoz barglari yorilgan teriga, qalinlashayotgan qadoqqa qo'yiladi. Barra piyoz taom hazm bo'lishini yaxshilaydi, soch to'kilishidan asraydi. Uning sharbati va qanddan tayyorlangan omixta organizmni mustahkamlaydi.

6. Gripp va nafas yo'llari shamollaganda piyoz maydalab to'g'rab eziladi. Biror idishga solib, boshga kattaroq ro'mol yopib hidlansa, yaxshi natija beradi.

Eslatma:

1. Xom piyozni o'tkir oshqozon-ichak, buyrak, jigar xastaliklari bor bemorlar iste'mol qilmasliklari lozim.

2. Piyoz suvini burunga tomizish mumkin emas, chunki u yallig'langan shilliq qavatga ta'sir qiladi.

3. Burun kataklariga piyoz bo'lagini tiqish aslo mumkin emas, chunki uni burundan tortib olish o'ta qiyin kechib, shifokor yordami kerak bo'lib qolishi mumkin.

Sarimsoqning shifobaxsh xususiyatlari juda qadimdan ma'lum. Abu Ali Ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» kitobida, Abu Rayhon Beruniy «Kitob as-say-dana fi-t-tibb» asarida sarimsoqning shifobaxsh xususiyatlari haqida yozib qoldirganlar.

Ibn Sino sarimsoq kulini asal bilan aralashtirib, temiratkiga malham tayyorlagan, sarimsoq qaynatmasi ichilsa, ovoz ochilib, ravon bo'lishini, og'iz chayilsa, tish og'rig'iga, surunkali yo'tal va astmaga davo bo'lishini aytgan. Qorin dam bo'lganda u sarimsoqni zaytun bilan qaynatib ichirgan.

Sarimsoq tarkibida fitosterinlar, fitonsidlar, efir moyi, S (0,24 mg%) darmondorisi, V guruhidagi darmondorilar, glikozid allein, azotli moddalar, mineral tuzlar, 20-27 foiz polisaxaridlar mavjud.

Xalq tabobati amaliyotida sarimsoq nafas yo'llari shamollashi, nafas qisishi, lavsha, bezgak, ichburug' kasalliklarida, qorin dam bo'lishi, balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Ilmiy tibbiyotda ham sarimsoqdan tadbirkorona foydalaniladi. Sarimsoq antibiotik, antiseptik, fitosidlik va hasharotlar kushandasi sifatida ishlatiladi. Ilmiy tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, sarimsoq ishtahani ochish bilan birga ovqatning hazm bo'lishiga ham yordam beradi. Undan tayyorlangan preparatlar qon bosimni pasaytirib, yurak qisqarish amplitudasini oshiradi. Sarimsoq qon tomirlarini kengaytirish bilan birga a'zolari yuqumli kasalliklardan muhofaza etishda katta xizmat qiladi. Qorin tifi, ichburug', vabo kabi kasalliklarni tarqatuvchi mikroblarga qiron keltiradi.

Tibbiyotda sarimsoq nastoykasi ichak atoniyasi, gipertoniya hamda ateroskleroz xastaliklarini davolash uchun tavsiya qilinadi. Shuningdek, undan buyrak va qovuqda tosh bo'lganda, revmatizm hamda niqriz kasalligini davolashda foydalaniladi. Tarkibida sarimsoqni quruq ekstrakti mavjud bo'lgan allaxol habdorilari jigar hamda o't pufagi kasalliklarida yordam beruvchi doridir.

Farmasevtika sanoatida sarimsoq tarkibidan allisin deb ataluvchi kuchli bakterisid xususiyatiga ega bo'lgan antibiotik olingan bo'lib, u juda suyuq konsentrsiyada (1:250000) bakteriyalarning o'sishini to'xtatadi.

Xalq tabobati usullari

Gijja. 1. Bitta maydalangan sarimsoq, 1 ta xom tuxum sarig'i, bir xovuch xom so'k (psheno), sutni aralashtiring. Ushbu qorishma bitta o'tirishda ichiladi. Ushbu vosita soliterni chiqarib yuboradi.

1 ta sarimsoqni tozalab, 1 stakan suv quyib, past olovda 10 daqiqa qaynating. Dokadan o'tkaziladi. Bir choy qoshiq maydalangan shuvoq (pol'm) o'simligini 1,5 stakan suvga solib 2 daqiqa qaynatiladi va sovutiladi. Dokadan o'tkazib, yuqorida tayyorlangan sarimsoq qaynatmasiga aralashtirib, bemorga huqna (klizma) qilinadi. Aralashmani huqna qilishdan oldin yopiq idishda 4 daqiqadan 1 soatgacha saqlab zarur.

Yangi siqib olingan sarimsoq suvini 10-15 tomchidan har kuni och qoringa bir mahal iliq sut bilan ichish kerak.

4. Sarimsoqning 5 ta bo'lagini maydalab, 1 stakan sutga solib yopiq holda past olovda 10-15 daqiqa qaynatib, bir oz dam yegach, iliq holida bir choy qoshiqdan 4-5 mahal ovqatdan oldin iste'mol qilinadi. Muolaja muddati – 7 kun. Qaynatmadan bir mahal yotishdan oldin 4-5 marta huqna (klizma) qilinsa, gijjalar tushib ketadi.

Angina. 1. 100 g sarimsoqni maydalab, termosga soling. Ustidan 0,5 stakan qaynoq suv quyib, 5 soat dam yediring. Qultumlab ichiladi.

1 stakan yangi siqilgan sabzi suviga 2-3 bo'lak qirg'ichdan chiqarilgan sarimsoqni soling. Kuniga 2 mahal ovqatdan 40 daqiqa oldin ichiladi. Muolaja muddati – 2-3 kun.

Angina profilaktikasi va og'iz bo'shlig'i shamollashini davolash uchun bir bo'lak sarimsoqni og'izga solib, sekin tishlab qo'ying.

Bronxit. 5-6 sarimsoqni qirg'ichdan o'tkazib, 100 g sariyog', 1 bo'lak mayda to'g'ralgan shivit (ukrop) bilan aralashtiring. Ertalab, peshinda, kechqurun nonga surtib iste'mol qiling. Bu muolajani pnevmoniyada ham qo'llasa, yaxshi samara beradi.

Migren. Boshingiz chekkalariga sarimsoqni maydalab bog'lang.

Tish og'rig'i. Sarimsoq suviga asalni aralashtirib, og'riyotgan tishga quyish kerak.

Yuqori qon bosimi (gipertoniya). 1. Har kuni nahorga 1 dona maydalangan sarimsoqni iste'mol qilib, ustidan chorak stakan suvga 1 choy qoshiq olma sirkasi qo'shilgan suyuqlikni ichish kerak.

20 ta sarimsoq, 5 ta o'rtacha kattalikdagi tozalangan piyoz, 5 ta limon, 1 kg shakarni yaxshilab aralashtirib, 2 lqaynatib, sovutilgan suv quyib, 2-3 kun qorong'i joyda, uy haroratida saqlash kerak. Qorishma dokadan o'tkazilmaydi. Kuniga 3 mahal ovqatdan 20 daqiqa oldin 1 osh qoshiqdan iste'mol qilinadi.

3 ta katta sarimsoq, 3 ta limonni maydalab, 1,5 l qaynagan suv quyib, yaxshilab berkitib, iliq va qorong'i joyda bir kun saqlanadi va vaqti-vaqti bilan

chayqab turiladi. Qorishmani kuniga 3 mahal ovqatdan yarim soat oldin dokadan o'tkazib, 1 osh qoshiqdan ichiladi.

Dizenteriya. Har kuni bir bo'lak sarimsoqdan iste'mol qilish fodali.

Xolesistit. 100 g tozalangan va maydalangan sarimsoqq yarim stakan qaynoq suv quyib, ustini yopib 5 soat dam yediring. So'ng dokadan o'tkazib iliq holida ichiladi.

Yurak infarkti. Bir kilo asalga 10 ta limon sharbati, 5 bosh sarimsoqni maydalab aralashtirib, 1 haftaga qo'yib qo'yiladi. Qorishmani kuniga bir mahal 1 choy qoshiqdan iste'mol qilish kerak.

Ushbu aralashma stenokardiya kasalligida ham foydali.

